

Insholar tanloving me'yori yo'qoldi

So'nggi paytda me'yordan ortiq insho yozdiriyapmiz. Yaqin 15 kun ichida 3 ta insho tanlovi o'tkazdik. Albatta, o'quvchi ko'proq insho yozsa buning foydasi ko'p. Fikrash doirasini, yozma nutq madaniyati, imlo savodxonligi oshadi, lekin...

3-bet

O'qituvchiga zamonga moslashishi uchun yordam kerak!

Orzularga ko'p berildik, katta ishlarni boshladik, olyi ta'llimdan ko'p narsalarni kudtik. Ammo akkariyat ishlarimiz kutilgan natijani bermadi, ishonchimizni oqlamadi. Maktab ta'llimini biroz boshqacharoq usullar bilan jonlantirish, zamonga moslashishni davrning o'zi taqozo etmoqda.

4-bet

Direktor o'rribosari nega darsini o'tmaydi?

Mutaxassisligim bo'yicha ona tili va adabiyot fani o'qituvchisiman. Ammo hozir maktabda mutaxassisligimga ko'ra o'zimga ajratilgan darslardan tashqari maktab direktorining o'quv ishlari bo'yicha o'rribosarining davlat va huquq asoslari fanidan darslarini ham o'tishga majbur bo'yapman.

5-bet

Kuch – bilim va tafakkurda

Ma'rifat

1931-yildan chiqa boshlagan • e-mail: info@marifat.uz • 2021-yil 3-mart, chorshanba № 9 (9334)

Xalq ziyorilari gazetasи

Nosog'lom muhitdan kim manfaatdor?



Reytingning maqsadi – umumta'lum muassasalar faoliyati samaradorligini baholash orqali Respublikamiz umumiy o'rta ta'limga tizimida sog'lom raqobat muhitini paydo qilishga qaratilgan.

Shunga qaramay, hududlarda ta'limga sifatini yaxshilash uchun intilish o'rniiga tizimdag'i ayrim xodimlar tomonidan qilingan mas'uliyatsizlik, sovuqqonlik xatti-harakatlari, ko'zbo'yamachilik, nazorat vaqtida belgilangan tartib-qoidalarni buzish holatlari haliga cha davom etib kelmoqda.

Nazorat jarayonlarining shaffof kechishiga qo'pol tarzda xalaqit beruvchi holatlarning uchrab turishi dilni xira qiladi. Masalan, jarayonga tanlangan sinfdagi o'quvchining o'rniiga boshqa o'quvchini olib kirish. Xo'sh, bunday nosog'lom muhitdan kim manfaatdor? Yolgon ko'rsatkichlar natijasi qancha umr ko'radi?

5-bet

3-sinf "Matematika" darsligi ota-onalar uchun ham murakkablik qiladi



MATEMATIKA
2-bet

O'qiluvchi nimani o'ylaydi?



Maktabimizga uch nafer 4-bosqich tabasidi, ya'ni bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini amaliyotga kelishdi. Talabalikda ishga kirish mumkinligi uchun ular ko'p maktablardan ish qidiribdi, lekin topolmabdi. Yaqinda o'qishni tugatishadi, lekin qayerdan ish topishni bilmay boshlari qotgan. Bizning maktabimizda ham boshlang'ichlar uchun umuman bo'sh o'rinni yo'q. Yuqoridaq mutasaddilar o'quvchilarini OTMlarga ko'proq kiritish haqidagi bosh qotirish bilan birga, bitirgamlarni ishga joylash, ish o'rinnarini ko'paytirish haqidagi ham o'ylasalar yaxshi bo'lardi. Balki stavkalar qisqartirilsa, ish o'rinnarini soni ham ortarmid!

Madinaxon NIZOMOVA

Ta'limga kirtilayotgan o'zgarishlardan albatta ijobji natijalar kutiladi, ammo yangiliklarning hammasi ham o'zini oqlayvermayapti. Sinf rahbarligi bo'yicha yangi nizom ayrim o'qituvchilarda norozilik tug'dirmoqda. Ko'rsatilgan talablarga to'g'ri keladigan o'qituvchilar soni ko'p emas. Talabga javob beradigan o'qituvchilarning hammasi ham sindi rahbarlikka labgor emas. Majbuliy Tayinlansa, ishga yaxshi yondashmaslik holatlari ham kuzatilishi tayin. Menimcha, yangi nizom ta'limga sifatini ortga tortishi mumkin.

Nafisa UMAROVA

Deputat Rasul Kusherboyev o'quvchi OTMga kirmagani uchun direktorni ishdan olish qonungiga zid deb to'g'ri aytadi. Chindan ham, nega endi ish dan olinishi kerak? Maktab bor imkoniyatini ishga solib bilim bersa-yu, ammo o'quvchi xohlamasa, balki u tadbirkor yoki hunarmand bo'lar. Bu uning tanlovi-ku. Bundan tashqari, shuncha oliv ma'lumotli kadrlarni ish bilan ta'minlash-chi? Hozir chekka hududlarni aytmasa, markazlardan deyarli ish topa olmaysiz. Super kontrakt bilan o'qishiga kirish esa bekor bo'lsin. Ta'limga pul bilan o'chanmasligi kerak.

Dilrabo NORQULOVA

Tavsiya

"Xalq binolari"da tug'ilgan orzular

Ta'lum muassasalar qanchalik ko'rkarbolsa, o'quvchiga ham, o'qituvchiga ham a'llo kayfiyat bag'ishlaydi. Maktablar xalq binosidir. Shifoxona to'g'i tashxis qo'yiladigan va davo choralar ko'rildigani dargoh bol'sa, maktab ta'lum-tarbiya bo'yicha to'g'i metod qollash joiz bol'gan, taraqqiyot uchun poydevor maskan. Ayni zamonda maktablar oldida turgan eng katta vazifa o'quvchilarining individual qobiliyatidan kelib chiqib bilim berish va biror kasbga qiziqishini oshirishdir. Sinfdag'i har bir o'quvchining o'ziga yarasha istagi, orzusi, ideal insoni boladi.

Maqsadingizni anglaysizmi?
Maktabda ish boshlagan ilk kunim o'quvchiga shunday savol berdim: "Maqsading nima?" Ya'ni, agar men tarix fani o'qituvchisi bo'lsam, sinfdagi yuz foiz o'quvchi ham tarixchi bo'lavermaydi. Demak, maqsadim — dars beradigan har bir o'quvchimni kelajakda o'zi xohlagan kasbaga to'g'i yo'naltirish. Dars o'tadigan barcha sinf bolalariga odatda shunday topshiriq beraman: "Bir hafta ichida kelajakda kim bo'lishingizni yaxshilab o'ylab yuring va aytildan muddatdan so'ng meniga aytasiz". Berilgan muhlat bitgach, o'quvchilarning tanlagan sohasini o'zim uchun yozib qo'yaman. Masalan, Abdurasulov Jasur — fizik. Kamida ikki haftada bir marta barcha o'quvchilarga har bir o'quvchining tanlagan kasbini o'qib eshitiraman.

Agar o'quvchiga orzusidagi kishi sifatida qarasak va murojaat qilsak, albatsta, bolaning o'zligiga nisbatan hurmat hissi ortadi va mas'uliyat bilan o'qish-

ga harakat qiladi. 5-sinfdan to 11-sinf o'quvchilarigacha shu metodni qo'lladim va bildimki, 99 foiz bolaning ko'ng'ida tanlagan kasbini egallash istagi bor. Hozir o'quvchilar ko'proq shifokorlik, o'qituvchilik, tarjimonlik, harbiylik, tadbirdorlik kabi sohalarni tanlashadi. Gohida ular shunday savol berishadi: "Ustoz, nega qiziqqan kasbimizni yozib olyapsiz?" Men esa hazil aralash jiddiy turib shunday deyman: "Bu yozib olayotganlarim maxsus tashkilotda saqlanadi, maktabni bitirganidan so'ng bu tashkilot sizlarni surishtiradi va "haqiqatan ham tanlagan kasbilarini egallashadi, olyi o'yuv yurtiga kira olishdimi" deb surishtiradi". Shunda ayrimlari men dan: "Ustoz, hali kasbimni o'zgartirsim bo'ladimi?", — deb hayajon bilan so'rashadi. Men esa yana maslahat berishda davom etaman.

O'tgan o'quv yili maktabimiz bitiruvchilarining 25 foizi OTM talabasi bo'ldi. Meni quvontirgani shu bo'ldiki, qaysi olyi o'quv yurtiga kirish istagi borligini

o'quvchilar ikki yil oldin oddiygina ikki varaqli qog'ozga yozib berishgandi. Bugun amalga oshgan maqsad bizga "Islohotni o'zingdan boshla" degan gapni eslatadi.

Maktabni nazorat maskanidan erkin, ongli harakatda bo'lgan ijod maskaniga aylantirishimiz lozim. Inson psixologiyasida bir xususiyat borki, kishi nimani ko'proq o'ylasa, ko'rsha, xayolida faqat o'sha jarayon hukmron bo'ladi va o'sha jarayonni real hayotida amalga oshirishni istaydi.

Hammaga a'llo baho!!!. Bahobidan o'quvchini rag'batlantirish ta'limgazimizning an'anaviy va qon-qoniga singib ketgan yo'lidi. Bu usuldan ham samarali foydalansa bo'ladi. Bu borada yuqori sinflarga shunday usul qo'llayman. Agar o'quvchi o'zi tanlagan (haligi, varaqqa yozilgan) kasbi doirasidagi fanlardan natijaga erishgan (amaliy ishlar qilgan, tanlovlardan faxrli o'rinnlari olgan) bo'lsa, unga o'zim o'tadigan fanlardan "5" baho qo'yishni kafolatlayman. Men uchun 10 ta fanni chala o'zlashtirishdan ko'ra ikitagina fanni mukammal egalash muhim hisoblanadi. Bolada shunday fikr shakllanishi kerak: "Kelajakdagi kasbimga doir fanlardan yuqori natijaga erishsam, qolgan fanlardan a'llo baholar olaman".

Baholash mezonlari. Sinfdag'i barcha o'quvchilar uchun bilish majburiy-

bo'lgan ma'lumotlar mavjud. Quyidagi baholash mezonlari orqali bu jarayonni tashkil etishga harakat qilaman:

— mavzu haqida umumiyy tushunchaga ega bo'lish;

— o'z fikrini mustaqil, erkin ifodalay olish va falsafiy fikr yuritish;

— ommaviy axborot vositalari ma'lumotlarni tahlil qilish, jamiyatimiz hayotiga oidi yangiliklardan xabardor bo'lish;

— dunyo davlatlari va shaharlari haqidada ma'lumotlarga ega bo'lish;

— ijodkorlik qobiliyatini namoyon etish.

Pandemiya va ta'lum. Endi fikrimizni oxirgi vaqtlardagi o'zgarishlarga qaratsak. Bunguni zamon tibbiyot ilmi juda katta sinovdon o'tmoqda. Koronavirus pandemiyasi dunyoning barcha mintaqalarida turlicha yo'sinda va sur'atlarda namoyon bo'lmoqda. Bunday sharoitda ta'lum masalasi o'ta dolzarb masalalar qatorida. O'zbekiston aholisining 60 foizidan ortig'ini yoshlar tashkil etishini hisobga olsak, mamlakatimizda ta'lum-tarbiya masalasi nechog'lik ahamiyatli ekanini tasavvur etishimiz qiyin bo'lmaydi. Shunday vaziyatda biz — o'qituvchilardan tablab qilinadigan, — mas'uliyatni his qilish va bolalarni sevish. Shunda hammasi yaxshi bo'ladi.

Fazliddin ABDURAIMOV,

Termiz tumanidagi

34-maktabning tarix fani o'qituvchisi

O'quvchiga minbari

3-sinf "Matematika" darsligi ota-onalar uchun ham murakkablik qiladi

O'tgan o'quv yilda 3-sinfga dars o'tayotgan ham-kasbim "Matematika" darsligidagi murakkabliklar, xatoliklar haqida nolib qoldi. Qiziqib, darslik bilan tanishib chiqdim. Darhaqiqat, 2019-yilda nashr qilingan 3-sinf "Matematika" darsligi(mualliflari S.Burhonov, O.Xudoyorov, Q.Norqulova va boshqalar) o'quvchilar uchun juda murakkab.

Bu yil men rabbarlik qilayotgan sinf 3-sinf bo'lishdi. Tabiiyki, bu darslik bilan ishlay boshladik. Darslikdagi murakkab mavzvu va topshiriqlar onlayn ta'lum olayotgan o'quvchilar uchun yanada qiyinchilik tug'dirdi. Ota-onalarga mavzularining birmuncha qiyinligi, ularni puxta o'rganish kerakligi, vazifalarni bajarishda farzandlariga yordam berishlarini aytidim. Ammo o'qituvchi ko'rgazmalar asosida tushuntiradigan mavzular ota-onalar uchun qiyinchilik tug'dirdi. Ayrimalri yarim hazil, yarim chin ohangda telefon qilib, topshiriqlarning javobini so'rashdi. Ba'zilari esa so'rashdan uyalib, farzandlariga "tush-unmayapman" deyishdi.

Kunlarning birida ota-onalaridan biri "Ustoz, "Matem-

atika" darsligi juda qiyin ekan-ku, men o'qigan paytda "Kasr" mavzusini 5-6-sinfda o'rganganmiz. Qiziq, 3-sinf o'quvchisi bu mavzuni qanday tushunarkan? O'g'limga masalalarni o'zim ham yechib berolmayapman", dedi. Haqiqatan, bu e'tirozlar o'rini.

Darslikning 59-betida "Sonning bo'luvchisi va karalisini aniqlash" mavzusi berilgan. Hali ko'paytirish va bo'lish amalini yaxshi o'zlashtirmagan o'quvchi bu mavzuni to'liq o'zlashtira oladimi? Mavzu 1 soat mustahkamlanib, keyin "Ikki xonali songa ko'paytirish" va "Ikki xonali songa bo'lish" mavzusi berilgan.

Yangi mavzuni mustahkamlash uchun topshiriq berildi. O'quvchilar-

imda qiyinchilik bo'lindi. Darslikning 126-betida "Kasr tushunchasi" mavzusi berilgan. Men esa bu mavzuni hozirdan hayotiy misollar, amaliy ko'rsatmalar bilan tushuntirib boryapman. Olmani olib, ikkiga, so'ng to'rtga bo'ldim. "ikkidan bir", "to'rtdan bir" tushunchalari ni sodda qilib tushuntirsam, o'quvchi yodida ko'proq qoladi. "Kasr" mavzusini boshlaganimda ham qiyinchilik bo'lmaydi.

MATEMATIKA

Umumli o'rta ta'lum maktablarining
3-sinf uchun darslik

To'rtinchchi nashr

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazifligi umumiy o'rta ta'lum maktablarining 3-sinf uchun darslik sifatida tashviya egen



Xullas, darslik mualliflari taklifim shuki, darsliklarda muammo bo'lmasin, mustahkamlash ushun soatlar ko'proq ajratilsin. Hamkasblarimga esa mavzuni mustahkamlash ushun ko'proq mustaqil topshiriqlar bering, sodda qilib, amaliy mashqlar orqali tushuntirishga harakat qiling, deb qolaman.

Rahbaroy MELIBOYeva,
Uchko'prik tumanidagi
5-maktabning
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Rus tilining “xorijiy til” maqomi rasmiylashishi zarur

Rus tili – go'zal va boy, keng ifoda imkoniyatiga egaligi tan olingen tillardan. Bu til, shuningdek, chorizm mustamlaka qilgan xalqlar o'zlashtirgan noyob olja. Ko'p xalqlar XX asrda rus tili vositasida zamonaliviy dunyoga yuz burgan edi. Biroq sobiq Ittifoq hududidagi mamlakatlarda bu tilga mavhum munosabat hanuz saqlanib qolmoqda. Davr uni oydinlashtirishni taqozo etayotir. Xususan, uning rasmiy mavqeysi masalasi – dolzarb muammo.

Ma'lumki, dunyo til siyosatining o'zak masalasidan biri – "xalqaro til" muammosi. Rasman tan olingen xalqaro til aholisi shu tilda so'zlashuvchi mamlakatdan tashqarida asosiy xorijiy til sifatida e'tirof etiladi va o'r ganilishi rasmiy ta'lim bilan yo'lga qu'yiladi. Biroq sobiq Ittifoq mamlakatlarida qaysi til xorijiy til sifatida e'tirof etilishi onunqoliqiga solinmagan va uning o'r ganilishini ta'minlashning huquqiy me'yorlari ishlab chiqilmagan.

Hozir "xalqaro til" tushunchasi so'zlashuvchisi soni nisbatan ko'p bo'lgan 10 ga yaqin tilga nisbatan q'llanadi. Bu termin o'rniда "dunyo til" atamasi ham ishlatalidi. "Xalqaro til" va "millatlararo aloqa til" tushunchalari chegarasi va mohivati anio emas.

Xalqaro tillarning quyidagi asosiy xususivati e'tirof etiladi:

- ko'p sonli aholi uni ona tili deb hisoblashi;
 - uni ona tili sanamaydiganlarning ko'pchiligi xorijiy til yoki ikkinchi til sifatida bilishi;
 - bu til ko'p mamlakat, qit'a va har xil madaniy doirada qo'llanishi;
 - ko'p mamlakat maktablarida xorijiy til sifatida o'qitilishi;
 - xalqaro tashkilot va konferensiyalar va yirik xalqaro firmalarda rasmiy til sifatida qo'llanilishi.

Dunyo mamlakatlarining aksariyat aholisi tabiiy ravishda biror (yoki bir nechta) xalqaro tilni biladi va unda og'zaki/yozma ravishda muloqot qila oladi. Faqat sobiq SSSR o'rnidagi mamlakatlarning ko'pchiligi aholining xorijiy tilni bilish reytingida quiy pog'o-nalarni egallaydi. Bu mamlakatlar o'rta yoshdan yuqori aholisining ko'pchiligi (hatto yetut olimlar va yuqori lavozimdagisi shaxslar ham) xorijiy tilni

bilmaligi asosida u yoki bu darajada/ holatda "kamsitiladi". Buning sababi – ittifoq tarqalishidan keyin bu hududlarda xalqaro maqomdagagi rus tilining mavqeyi o'zgarishsiz qolgani. Muammoning yechimi esa dunyo miyqosida xalqaro va xorijiy til sifatida e'tirof etiladigan rus tiliga sobiq ittifoqning Rossiya Federasiyasidan boshqa hududlarida ham xorijiy til maqomini berish. Bu huquqiy maqom quydagi muammolar yechimiga olib keladi:

birinchidan, aholi(xususan, ilmiy va mansabdor kadrlar)ning xorijiy tilni o'zlashtirganlik darjasini yuqori ekanligi ko'riniadi:

ikkinchidan, rus tilining boshqa xorijiy tillar kabi o'qitish metodikasi takomillashadi;

uchinchidan, rus tilining boshqa xorijiy tillardagi kabi baholash tizimi ishlab chiqiladi;

to'rtinchidan, rus tilining maz-kur hududlardagi mavqeyi va maqomi haqidagi har xil bahs-munozaralarga chek qo'shiladi;

beshinchidan, rus tilini xorijiy til sifatida o'rganishga qiziquvchilar soni ortadi (u xorijiy til sifatida tan olinmaganligi uchun ham kô'pchilik uni o'rganmaydi).

Bugungi kunda xalqaro miqyosdarus tilining mavqeyini oshirish maqsadida bayonot berayotgan siyosatchilar uni o'rganish metodikasini takomillashtirish, o'rgatish uchun uning ichki qurilishi darajalarini ishlab chiqish – ta'limingin jozibadorligini ta'minlashni ko'proq targ'ib qilishlari lozim. Chunki hozir ham, avval ham, rus tilini ta'lim asosida o'rgatishning iloji bo'limgan. U tinimsiz muloqot (muhit) tarbiyasi asosidagi yo'ldan boshqa yo'l bilan egallab bo'lmaydigan til holatiga

lari kabi rus tilini repetitorlardan yoki o'quv markazlariga qatnab tuzuk-quruq o'rgangan yoshlarni ko'rmadim. Sababi – o'qitish metodikasining qoloqligi. Umumta'lum tizimidagi "Russkiy yazük" darsliklari rus tilshunosligining "kichraytirilgan" ko'rinishi bo'lib kelgan. Milliy tillarning ta'limi ham rus tili ta'limi andozasida shakllangan – rus tilshunosligi asosidagi milliy "ona tilshunoslik" mazmun-mohiyatiga ega bo'lib qolgan. An'analashgan bu ta'limdan, mana, 30 yillardir, chiqib keta olmayapmiz.

Integrallashgan va darajalangan ta'lim metodikasi ishlab chiqilmaganligi barobarida rus tilining axborot tashuvchanlik darjasini ham nihoyatda past bo'lib qolgan. Masalan, terminologik aniqligi baland bo'lishiiga qaramasdan, rus tilidagi butun-butun xatboshi mazmunini o'zbek tilida bir jumla bilan berish mumkinligi - buning dalili. Rus ilmiy uslubi hali turkiy tillarning XV asrlardagi badiiy uslubiga xos jimpimadorlik va murakkablik holatida turibdi. Zotan, tillarning taraqqiyoti ularning soddaflashuvi va, buning natijasi o'laroq, quayliy darajasining oshib borishidir.

Qo'shimcha sifatida aytib o'tish lozimki, aslida rivojlangan tillarning

taraqqiyotiga bu til sohibi bo'lmagan xorijiliklarning ta'siri katta bo'ladi. Xorijiliklar uchun qulaylashtirilgan metodika shakllantiriladi, tilning har biri o'z ichida yana bo'linib ketadigan boshlang'ich, o'rta, yuqori darajalariga xos leksik, morfologik, sintaktik minimum va maksimumlar ishlab chiqiladi – darajali me'yorlar shakllanadi. Natijada adabiy me'yorlar til egasi bo'lmaganlar orasida tezroq va ko'proq ommalashadi. Adabiy me'yorlar bilan qurollangan til egasi bo'lmaganlarning lisoniy ta'siri til egalarining nutqlari takomillashuviga turki beradi. Tarixda ajamlarning arab tilida taraqqiyotiga, ingliz bo'lmaganlarning inglizlilar nutqiga ta'siri – bunga misol.

Xulosa shuki, sobiq Ittifoq hududida
rus tilining xorijiy til sifatidagi huquqiy
maqomini ta'minlash va uni o'rgani-
sh/o'rgatishning qulay metodikasini
shakllantirish – davr talabi. U mazkur
davlatlar siyosatidagi nozik masala – til
siyosatini takomillashtiradi, bu boradagi
chalkash, mantiqsiz va asossiz da'volarga
chek qo'yadi, qolaversa, rus tilining
tabibiy ommalashuviga ham turkti beradi

Baxtiyor MENGLIYEV,
filoloqiya fanlari doktori, professor

O'qituvchi minbari

Insholar tanlovinining me'yori yo'qoldi

S'onggi paytda me'yordidan ortiq insho yozdiriyap-miz. Yaqin 15 kun ichida 3 ta insho tanlovi o'tkaz-dik. Albatta, o'quvchi ko'proq insho yozsa buning foydasi ko'p. Fikrlash doirasi, yozma nutq madani-yati, imlo savodxonligi oshadi.

Ammo buyruq asosida berilayotgan insholarning mavzusi o'quvchilar uchun qiziqarli emas. Jumladan, "Biz korrupsiyaga qarshimiz" (6-11-sinflar), "OITSni yengamiz" (8-11-sinflar) kabi mavzularda o'quvchilar insho yozishsha qaynalishadi. Buning sababi, hali katta hayotga qadam qo'ymagan, korruptsiya kabi illat mavzusi mohiyatini his eta olasabu mavzu unga qalban yaqin bo'sha, yozganlarda shaxsiy fikr o'y va shuurini, qalbidagi gaplarini aks ettiradi. Ammo hisob uchun yozdiriladigan bunda mavzudagi insholarda o'quvchilar ko'chirishga qulay manbi izlab, umumiy gaplardan narig o'tolishmaydi.

To 'g'ri, korrupsiya, OITS bung'i kunning dolzARB muammolaridan. Maktab o'quvchilari

buning nima ekanligi, jamiyatga davlatga qanday zarar yetkazishi, bunday illatlardan yiroq yurishlari kerakligini bilishlari lozim Shunday ekan, buni davra suhbat shaklida o'tkazsa, samaraldo bo'lmaydim? Sinf soatlarida ham bunday mavzular mavjud Dars davomidagi yozma ishlarning o'zi yetarli. Bunday mavzulardan insho yozdirish, o'quvchilarning umuman insho degan jarayondan bezib qolishiga olib kelvapti.

"Insho" so'zi "bino qilish" "qurish" degan ma'nolarni bildiradi. Maktablarda biz har ikk kunda nimadir "quryapmiz" O'sha qurayotganimiz foydalimiz

yoki xo'jako'ssingami, ajrata ol-may qoldik. To'g'risi, har qanday ish me'yorida bo'Igani yaxshiekan. Tanlovlari yaxshi, ammolarning har hafta o'tkazilishi dan kim manfaatdor? O'qituvchidars o'tsimmi yoki har oyda ik-kitadan tadbirga tayyorlansinmi? Oxiri ko'rinnmaydigan insholar tanlovi, kasalliklar bo'yicha yozdiriladigan diktantlar nima beradi ta'limga? Bolalar darsda ham insho yozgilari kelmay qolayti. Yaqinda 6-sinf o'quvchilarimga "Korrupsiya haqidagi insho yozamiz" desam, nima u deyishdi. Tushuntirishga harakat qildim(tushunganlariga ishonmadim). Ko'zlarini pirpiratib

O'qituvchiga zamonga moslashishi uchun yordam kerak!

Zamon shiddati bugun bizni taraqqiyot yo'lidan ancha ortda qoldirganini tan olish lozim. Bu — og'riqli bo'lsa-da haqiqat. Orzularga ko'p berildik, katta ishlarni boshladik, oly ta'lindan ko'p narsalarni kudtik. Ammo aksariyat ishlarnimiz kutilgan natijani bermadi, ishonchimizni oqlamadi. Maktab ta'limini biroz boshqacharoq usullar bilan jondantirish, zamonga moslashishni davning o'zi taqozo etmoqda.

Nega biz hayotda qiyalyapmiz — bilimsizligimiz, zamonaviy bilimlarni egallashdan ortda qolganimiz, bor diqqat-e'tiborimizni mayda-chuya maishiy muammolarga qaratganimiz uchun emasmi? Inson fitratida tabiyi ehtiyoj bor: qorin yo'didir, kun ko'rish kerak. Lekin yana bir haqiqat ham bor — odam faqat kum o'tkazish uchun yashamaydi, u rivojlanib borishi, o'sishi kerak, ana shunda ertangi kuni bugunidan yaxshiroq bo'ladi.

Boshi "tirikchilik" tashvishidan chiqmaydigan oilalarda beruniylar, ibn sinolar, xorazmiyalar yana tug'ilishi mumkindir, ammo ularning iqtidorini ko'ra olmasak, tarbiya qilmasak, hayotimizda bundan keyin ham hech qanday o'zgarish bo'lmaydi. Bularning barchasi, avvalo, maktab ta'limiga bog'liq.

90-yillarning boshida Rossiya shunday vaziyat bo'lgandi. Siyosiy tizim o'zgargan, katta mamlakat parchalangan, maktablarining saviyasi butunlay tushib ketgan davrlar. O'shanda olyi ta'lim muassasalariga shunday topshiriq berilgan: har biri o'z ichki imkoniyatlaridan foydalaniib, maktablar bilan hamkorlik qilishi lozim edi. Har bir institut yoki universitet qaysi yo'naliishlarda rivojlanayotgan bo'lsa, o'z yo'naliishi bo'yicha tumanlarda maktablar tashkil qilishi yoki maktablar bilan yaqindan hamkorlikni yo'lga qo'yishi kerak edi. Shu yorda maktablardara fanlar assortsiyalari tashkil etila boshlandi.

Moskva viloyatida bir yarim mingga yaqin maktab bo'lsa, ularda o'qitiladigan jami 18 ta fan bo'yicha assotsiatsiyalar faoliyati yo'lga qo'yildi. Institut, universitetlar professor-o'qituvchilar maktab o'qituvchilar uchun mahorat darslari tashkil etardi, yaxshi tashabbuslar ommalashtirilardi. Shu tariqe maktablar orasida sog'lom raqobat muhit shakllandi. Fanlarni o'zlashtirish borasida musobaqa-qalashish boshlandi. Maktablar jonlandi. Bu yaxshi tashabbus 3 yoki 4 yilda yoq samara berdi. O'qituvchilar xalqaro fan olimpiadalarida g'olib bo'la boshladilar, olyi ma'lum olishga intiluvchilar ko'paydi va hokazo.

Ayni kunda Rossiya xalq ta'limi sohasi bo'yicha dunyodagi kuchli o'ntalik mamlakatlari safida. O'sha payti ular maktabta'limi borasida eng ilg'or mamlakatlar tarjibasini o'rgangandi. Bular Singapur va Finlandiya xalq ta'limi tizimi. Qizig'i, ulardagi ta'lim tizimi rossiyaliklarga ma'lum bo'lgan an'anaviy usullarni o'zlariga moslashtirgan bo'lib chiqdi.

Aytish mumkinki, har bir yangilik ba'zida unutilgan eskilik bo'lib chiqishi mumkin. Biz, albatta, bu tajribani ayanan o'zlashtirmaymiz. Mamlakatimiz

ta'lim tiziminining hech qaysi mamlakatnikiga mutlaqo o'xshamaydigan o'ziga xosklari, muammolari va yutuglari bor. Jahon tajribasida ko'p bor muvaffaqiyat keltirgan bu usulning albatta "O'zbek modeli"ni yaratishimiz lozim.

Prezidentimizning 2020-yil 6-noyabr-dagi "Ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori ijrosi ko'p jihatdan olyi ta'lim muassasalarini zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Bu o'rinda asosiy ish, albatta, pedagogika va psixologiya yo'naliishlaridagi mutaxassislar tayyorladigan institut va universitetlar hisobiga to'g'ri keladi. Chunki ular maktab tizimiga eng yaqin mutaxassislardir. Misol uchun, texnika universiteti mutaxassis pedagog bo'imasdan turib, maktab ta'limida ishtirok etolmasligi, aniqrog'i, 45 daqiqalik darsni qanday tashkil etishni (dars tuzilmasini) bilmaligi mumkin. U yaxshi mutaxassis, o'z sohasining bilmidonidir, lekin pedagog emas. Darslarda me'yordan ortiq bilimni o'quvchilar miyasi qabul qilishga qodir emasligini pedagog bo'Imagan kishi tushunolmaydi. Ishni dastlabki bosqichdan boshlash kerakligini bilmaydi va hokazo. Demak, aytish mumkinki, pedagogika, psixologiyadan xabaror bo'lgan kishilar uchun ishni tashkil qilish juda qiyin va murakkab.

Samarqand veterinariya meditsinasini instituti ayni kunda Samarqand viloyatidagi 150 ta maktab bilan hamkorlik qilmoqda. Bir oy davomida viloyatning o'nlab maktablarini hayoti bilan yaqindan tanishdik. Pastdarg'om, Paxtachi, Narpay va Samarqand tumanlari maktablarida bo'lganimizda, bir narsaga aman bo'ldikki, ular turli hududlarda joylashgan bo'lishiga qaramasdan, muammo va tashvishlari bir xil. Ular orasida na'munali maktablar ham bor – bitiruvchilar OTMlarga kirgan, o'quvchilar olimpiada g'olbligini qo'lga kiritgan, turli tanlovlarda muvaffaqiyat qozongan va hokazo. Shu bilan birga, yillar davomida bironta bitiruvchisi o'qishga kirilмаган, ro'yxatlarda bo'Imagan, hujjat ishlarni mutlaqo yuritilmaydigan maktablar ham borligini e'tirof etish lozim.

Samarqand veterinariya meditsinasini instituti qoshida Fanlar uyushmasi tashkil etildi. Uyushmada maktablarida o'qitiladigan jami 9 ta fanning (ona tili va adabiyot,



matematika, informatika, kimyo, biologiya, tarix, chet tili, fizika) o'qituvchilar muntazam o'qitilib boriladi. Seminar-treninglar, mahorat darslari, tajribalar almashinuv va malaka oshirish mashg'ulotlari tarzida tashkil etiladigan darslarda maktab o'qituvchilariga yangi bilimlar o'rgatiladi. Ular darslarda o'z hamkasbleri bilan tajriba almashadi, fikrashadilar, dars o'tishning zamonaviy usullari o'rgatiladi. Seminar-treninglarda ishtirok etib, shu narsaga aman bo'ldimki, ular, ya'ni o'quvchilar bu loyiha katta umid bildirishmoqda. Loyihaning maqsadini hijjalab tushuntirishga hojat qolmadni, ular birpasda mohiyatni anglab olishdi. Hatto kimyo va biologiya fanlaridan mutaxassis bo'lganim uchun bir necha dars-mashg'ulotlarni shaxsan o'zim o'tib berishimni iltimos ham qilishdi. Nega rozi bo'lmasligim kerak?

Aytaylik, har bir o'quituvchining yaxshi ko'rgan mavzusi bo'ladi, u ana shu mavzuni mazza qilib o'quvchilariga o'rgatadi. Ba'zi mavzularni esa yaxshi tushunmasligi (o'zidan qoniqmasligi mumkin), shuning uchun darsni ham yuzaki o'tishi mumkin. Treninglarda u hamkasbleri orasidan ana shu o'zi tushunmaydigan mavzuni yaxshi biladigan va sevadigan hamkasbini uchratadi, undan o'rganadi va tajribalar ommalashadi. Sog'lom raqobat muhit shakllanadi.

Maktab o'qituvchilarida bilimlar yetarliligi ko'rinish turibdi. Ana shu bilimni o'quvchiga yetkazsa bilish, o'quvchilarini darslarga jalb qilishni, ularning orasidan kimmiga nimaga qobiliyatni, iqtidori borligini aniqlab, ular bilan yanada churroq ishlashni o'quvchiga eslata olsak yoki o'rgata olsak, maqsadga ancha yaqinlashgan bo'lardik.

Fanlar uyushmasining asosiy vazifasi ham ana shuhardan iborat.

Demak, ishlarni shunchaki "qog'ozda", "ura-ura"chilik asosida bajarish bilan ish bitmaydi. Maktab ta'limi borasida katta islohotlarni amalga oshirishga kirishdik. Yana bir narsani unutmasislik kerakki, olyi ta'limga yoshlarni tayyorchashan aynan maktab ostonasidan boshlan-

di. Bugungi hamkorligimiz albatta yaqin kelajakda o'z mevasini berishiga umid qilish mumkin. Yana muhimrog'i, ishlarmizni tizimli, muntazam, aniq qoidalasosida, rejali olib borishimiz kerak.

Maktablarimizda zamonaviy bilimlarni o'qitishda sustashlikka yo'l qo'yilayotgani ham achinarli hol. Bu balki maktab ma'muriyatini bilan emas, yuqoriq doiralar hal qilinishi lozim bo'lgan muammodir. Lekin o'quvchi internet aloqasiz, kompyuterlarsiz darsga ko'ngildagidek tayyorgarlik ko'rolmaydi. Darslarda bu vositalardan foydalansmasdan turib, yaxshi natiyalarni qo'lga kiritish mushkul.

Maktab darsliklari bugungi kunga ke-lib ancha eskirib qolgani ham bir muammo. Ularni yangilash uchun katta mablag' lozim. Bu davr mobaynida o'quvchejar elektron kutubxonasi imkoniyatlaridan foydalanshilari mumkin. Maktab internet tizimiga ulanmagan bo'lsa, ular bu imkoniyatdan ham foydalana olmaydilar. Kompyutersiz, internetsiz va boshqa zam'onaviy aloqa vositalarisiz biz o'quvchilariga chucher bilim bera olmaymiz, yoshlarni qiziqtira olmaymiz. O'quvchilar qo'llaridagi oddiy smartfon bilan ham bugun ko'p ishlarni amalga oshirishga qodir. O'quvchilar o'z o'quvchilaridan ortda qolishlari esa achinarli holat. Ayni kunda bu borada yana bir yaxshi ishga qo'l urilayotgani, ya'ni o'quvchilar uchun elektron kundalik joriy etilib, sind jurnallari elektron tarzda yuritilishi haqidagi xabarlar ko'ngilga biroz tashkil beradi.

Xullas, yaxshi niyatlar bilan bu katta loyiha qo'l urdik. Maktabning, o'quituvchilarining obro'sini qaytarishimiz kerak. Maktablar ilgarilari tom ma'nodagi ziyo, ma'rifat maskani bo'lgan. Dunyoning barcha muammolari, yangiliklari avvalo maktab miqyosida o'quvchilar tomonidan muhokama qilingan, ularning talqini xalqqa yetkazilgan, o'quvchilar esa jamiyatning eng ilg'or qatlami, nufuzli, e'tiborli kishilari bo'lishgan. Aslida ham shunday, bu kasb egalari hurmatga loyiq kishilardir. Ular o'zlaridagi bor bilmlarini shogirdlariga berib, millat kelajagini, kelgusi hayotini ta'minlaydilar.

Biz o'quvchiga imkon beraylik, hech bo'lganaga, uslubiy tomonidan. Bu bilimlar uning zamonga moslashishiga yordam beradi.

Xudoyazar YUNUSOV,
SamVMI rektori,
biologiya fanlari doktori,
professor

Boshi "tirikchilik" tashvishidan chiqmaydigan oilalarda beruniylar, ibn sinolar, xorazmiyalar yana tug'ilishi mumkindir, ammo ularning iqtidori ko'ra olmasak, ularni tarbiya qilmasak, hayotimizda bundan keyin ham hech qanday o'zgarish bo'lmaydi.

Nosog'lom muhitdan kim manfaatdor?

So'nggi yillarda davlatimiz rahbari tomonidan xalq ta'lifi tizimini tubdan isloq qilish, maktablarda ta'lim sifatini oshirish, o'qituvchilarning jamiyatagi hurmatini yuqori darajaga ko'tarish, maktablarning holatini yaxshilash va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish bo'yicha zarur vazifalar belgilab berilmoxda. Jumladan, umumta'lim muassasalarini faoliyati samaradorligini baholashga qaratilgan milliy reyting tizimi ushbu vazifalardan biri bo'lib, maktablarda ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Milliy reyting – umumiy o'rta ta'lim tizimida ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ichki islohot bo'lib, uning natijasi orqali ota-onalar va keng jamoatchilik tizimda bo'layotgan o'zgarishlar va maktablardagi o'quv muhiti haqida shaffof ma'lumotlarga ega bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi "Xalq ta'limi boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni ijrosi yuzasidan Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiysi tomonidan Xalq ta'limi vazirligi bilan birgalida Respublikamizning 204 ta tuman va shaharlarida 983 ta maktabda milliy reyting jarayoniga oid navbatdagi nazorat ishlari va ijtimoiy so'rovnomalar o'tkazildi.

Mazkur jarayonning shaffof va sifatli o'tishini ta'minlash uchun jami 15 ta ishchi guruh tuzilib, uning tarkibida Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiysining Kadrlar tayyorlash sifatini monitoring va nazorat qilish hamda reytinglar tuzish bo'limi, Inspeksiyaning hududlardagi bo'limlari, OTMlarning ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limlari, Xalq ta'limi vazirligining hudoibiy boshqarmalari hamda tuman va shahar xalq ta'limi bo'limlari mutaxassislar qatnashdi. Maktablarda 9-sinf o'quchilar bilan 2 ta fanda nazorat ishlari, pedagog va rahbar xodimlar faoliyati samaradorligini o'rganish hamda umumta'lim muassasasida yaratilgan sharoitlar va o'qitish muhiti holati haqida o'quchilar va o'qituvchilar orasida ijtimoiy so'rovnomalar o'tkazildi.

9-sinf o'quchilar bilan o'tkazilgan diktant ishi o'qituvchilar savodxonlik darajasi, husnixati va o'z ona tilida matni xatosiz yozish ko'nikmasi qanday shakllanganligini aniqlab bersa, matematikadan yozma ish natijalari bugungi kunda maktablarda o'quchchi yoshlarning qanday bilmolayotgani, turli xil amaliy sharoitlarda muammolarni hal qilish uchun o'quchchi-

larda matematik fikrlashni shakllantrish va matematikani talqin qilish qobiliyatini qaydarjada o'zlashtirayotganini aniqlab beradi.

Maktablar reytingi – xalq ta'lifi tizimining qanday ishlayotganini ko'rsatib turuvchi mezondir. Reyting orqali umumiy o'rta ta'lim muassasalarini faoliyati samaradorligiga baho beriladi, ta'lim sifatini monitoring va nazorat qilish ta'minlanadi. O'tkazilayotgan so'rovnomalardan asosiy maqsad o'qituvchilarning o'quchilarga bilim berish darajasini aniqlash, o'quchilarning o'qituvchilarning faoliyati haqidagi fikrlarini o'rganish, ta'lim olish uchun yaratilgan sharoitlarni tahlil qilish va o'qituvchilarning sifatli bilim olishlari uchun to'sqinlik qilayotgan muammolarni o'rganib bartaraf qilishdan iboratdir. Bir so'z bilan aytganda, reytingning maqsadi – umumta'lim muassasalarini faoliyati samaradorligini baholash orqali Respublikamiz umumiy o'rta ta'lifi tizimida sog'lom raqobat muhiti paydo qilishga qaratilgan.

Shunga qaramay, hududlarda ta'lim sifatini yaxshilash uchun intilish o'miga tizimdag'i ayrim xodimlar tomonidan qilingan mas'uliyatsizlik, sovuqqonlik xatti-harakatlari, ko'zbo'yamachilik, nazorat holatlari haligacha davom etib kelmoqda.

Nazorat jarayonlarining shaffof kechishiga qo'pol tarzda xalaqit beruvchi holatlarning uchrab turishi dilni xira qiladi. Masalan, jarayonga tanlangan sinfdagi o'qituvchining o'miga boshqa o'quchini olib kirish. Xo'sh, bunday nosog'lom muhitidan kim manfaatdor? Yolg'on ko'rsatichilar natijasi qancha umr ko'radi??

Jumladan:

Andijon viloyatida: Andijon shahridagi 54-maktabda nazorat ishlari o'tkaziladigan 9-sinfga 3 nafar kollej o'quchisi kiritilgan, Oltinko'l tumanı 30-maktabda 6 nafar va Asaka tumanı 27-maktabda 5 na-

far o'quchchi almashtirilgan, Qo'rg'on tepe tumani 19-maktabda 1 nafar o'quchchi va Qorasuv shahri 3-maktabda 1 nafar o'quchchi telefon olib kirdi.

Farg'on'a viloyati: Quva tumani 16-maktabda 5 nafar o'quchchi 10-sinf o'quchilar bilan almashtirilgan.

Toshkent viloyatida: Parkent tumani 16-maktabda 2 nafar o'quchining o'miga boshqa o'quchchi kiritilgan, Angren shahar 28-maktabda 4 nafar o'quchchi 10-sinf o'quchilar bilan almashtirilgan. Angren shahar 38-maktabda 2 nafar o'quchchi telefonidan foydalangan. Zangiota tumani 27-maktabda 1 nafar o'quchchi tartib-qoidani qo'pol ravishda buzgani uchun jarayon dan chetlatilgan.

Namangan viloyatida: Chust tumani 29-maktabda 3 nafar o'quchining o'miga boshqa sinf o'quchilar kiritilgan.

Samargand viloyatida: Urgut tumani 93-maktabda 8 nafar o'quchchi boshqa maktabdan keltirilgan, Shuningdek, Pastdarg'om tumani 51-maktabda 6 nafar, Nurob tumani 69-maktabda 1 nafar, 68-maktabda 5 nafar, 31-maktabda 6 nafar, Paxtachi tumani 4-maktabda 2 nafar, 7-maktabda 4 nafar, Toyloq tumani 10-maktabda 4 nafar, o'quchining o'miga boshqa sinflardan o'quchchi kiritilgan, Kattaqo'rg'on shahar 14-maktabda 1 nafar o'quchchi almashtirilgan.

Sirdaryo viloyatida: Boyovut tumani 39-maktabda 3 nafar, 12-maktabda 2 nafar o'quchchi almashtirilgan.

Jizzax viloyatida: Zomin tumani 24-maktabda 1 nafar, Baxmal tumani 9-maktabda 1 nafar, Yangiobod tumani 9-maktabda 3 nafar o'quchchi almashtirilgan.

Qashqdaryo viloyatida: Chiroqchi tumani 98-maktabda 8 nafar o'quchining o'miga boshqa o'quchilar kiritilgan.

Qoraqalp'iston Respublikasida: Mo'ynoq tumani 14-maktabda 1 nafar o'quchchi o'rniga boshqasi kiritilganligi aniqlandi.

Milliy reyting jarayonidagi ko'z yumib bo'limas bu xato va kamchiliklarni qanday tuzatish mumkin? Aiting-chi, kim-kimmi aldayapti? Axir, "Farzandlarimiz — kelajagimiz" deya bong urib turgan bir vaqtida, aynan ta'lim-tarbiya tizimida faoliyat yuriyatog'an o'qituvchilar, maktab rahbarlari, kerak bo'lsa, mas'ul bo'lgan viloyat, tuman rahbariyatinining loqaydliklarini qanday

baholash mumkin? Jarayonda o'quchilar ning nazoratchiga kiprik qoqmay o'rgatilgan ism-familiyani aytishini yoki davomat so'ralganda navbatchi o'quchchi aytgan ma'lumot bilan sind rabbarinining aytgan ma'lumoti to'g'ri kelmay qolishini qanday izohlaymiz? Xalq ta'lifi xodimlari eng birinchi navbatda maktabda adolat o'rnatalishlari kerak emasmi?

O'qituvchi mehnating samarasini o'quchida namoyon bo'ladi. Shundan kelib chiqib aytadigan bo'lsak, o'qituvchi qilinmagan mehnatini yashirish maqsadida jarayonning shaffof o'tishiga to'sqinlik qilmoqda. Keling, soxtakorlik ortidan kutildigan boshqa jihatlarga ham e'tiborimizni qarataksak. Ota-onha milliy reytingdan farzandining chetlashtirilganini, o'miga boshqa o'quchining kiritilganini bilsa, qay holatga tusharkan? Nazaridagi hurmatga loyiq o'qituvchi haqidagi fikri o'zgarmasligiga kim kafolat beradi? Jamiyatagi o'qituvchi mavqeysi shakllanishidagi asosiy omilni, ya'ni xalq bahosini o'z qo'limiz bilan boy bermayapmizmi? Ta'lim-tarbiyadagi muammo shu yo'l bilan bartaraf etiladimi? Eng achinarli, bunday xatti-harakatlar bilan o'z kelajagimiz bo'lgan yoshlarga yolg'on tarbiya bermayapmizmi? Ma'naviy ojizlik nishonasi emasmi bu? Savollar ketidan yurakni larzaga soluvchi o'riqli savollar tug'ilaveradi... Balki, bunday nuqsonlarga nuqta qo'yadigan fursat kelgandir!?

Birinchi navbatda, o'quchiga sifatli ta'lim berish uchun uni aldamaslik kerak, har bir o'qituvchi dars berayotgan faniga va o'quchilariga nisbatan javobgarlik burchini sezishi, jamiyat va o'quchchi ehtiyojini aniqlashtirish uchun timsiz izlanishi zarur.

Boshlang'ichda binoning ko'rinishi mukammal chizilsa-yu, ammo qo'yiladigan poydevoridan tortib ustunigacha mustahкам bo'limsa, devorlariga ming zeb berilaversin, yengil esgan shabadaga ham dosh berolmaydi. Chunki mo'rt tashlangan poydevorli bino albatta qulaydi.

Tizimda ishlayotgan viloyat, tuman xalq ta'lifi mas'ullaridan tortib o'qituvchilargacha pedagoglik mas'uliyatini bor vijdoni bilan his etishi kerakki, bu – har so'zi-yu amalida ko'rinsin!

Hayotxon XUSAMBOYEVA,
Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat
inspeksiysi bosh mutaxassisini

ografiyadan dars o'lgan va har doim o'ziga ajratilgan darsni qoldirmay, mas'uliyat bilan o'tadi. Direktorning ishi kam deb o'yalsizmi? U ham men rabbarman deb, qo'l ositagi o'qituvchi xodimlariga darsini majburlab o'ttirsa kim "yo'q" deya olardi. Ammo kasbiga bo'lgan sadoqati, mas'uliyat hissi rabbar pedagogini bir zum darsdan chalg'itmaydi.

Xulosa o'mida maktabda faoliyat yuritayotgan rabbar kadrlarga murojaat qilib demoqchimani, biz ishlayotgan sohada eng muhimi bu saboq daqiqalar, ya'ni 45 soatlik darsdir. Qo'qozbozik, majlisbozlik, tekshir-teksir, tadbirbozliklari darsdan keyingi — ikkilamchi vazifalar ekanini unutmaylik. Rabbar xodim darsini o'tolmayapti, unda hammat qilib, dars soatlarini boshqa mutaxassis o'qituvchilarga bo'lib berinsin.

Charos VAHOOVA,
Kosonsoy tumanidagi
2-maktab o'qituvchisi

O'qituvchi minbari

Direktor o'rinbosari nega darsini o'tmaydi?

Saboq uzviylikda olib borilsa, mukammallik kasb etadi. Agar o'qituvchi bir kun dars qoldirsa yoki darsiga bee'tibor bo'lsa, bir sinf o'quchining fanga oid bilimlarida bo'shilq yuzaga keladi. Bu bo'shilqning o'mi vaqtida to'ldirilmas ekan, keyingi mavzu o'quchchi ongiga singib ketmaydi. Afsuski, ko'p yillar pedagog bo'lib ishlaganlar orasida ham mana shu oddiy haqiqatni his qilmaydiganlar talaygina.

Mutaxassisligim bo'yicha ona tili va adabiyot fani o'qituvchisiman. Ammo hozir maktabda mutaxassisligimga ko'ra o'zimga ajratilgan darslardan tashqari maktab direktorining o'quv ishlari bo'yicha o'rinbosarinining davlat va huquq asoslarini fanidan darslarini ham o'tishga majbur bo'lyapman. Mutaxassisligim bo'imgan

fandan tayyorgarliksiz dars o'tish menga ham og'ir. Ammo direktor o'rinbosari buni tushunmaydi. "O'tmayman, o'zingiz o'ting" de-sam, mening ishimdan kamchilik topishni boshlaydi. Eng achinarli, o'quchilarning taqqdiri. Kelib-kelib direktorning o'quv ishlari bo'yicha o'rinbosariga davlat va huquq asoslarini fanidan bitiruvchi sinflar darsi

ajratilgan. Har doim bu sinfda dars berishga kirsam, o'quchilar haq-qini talab qilishni boshlashadi. "Siz bu fandan mutaxassis emassiz-ku, bizga mutaxassis o'qituvchi dars bersin. Biz ham oliy ta'lim muassasiga kirish uchun tayyorlanishimiz kerak" deyishadi. O'quchilarning bu haqiqatlariga qarshi biror so'z topolmay qolaman.

Direktor o'rinbosariga ko'p bora o'quchilarning talablarini yetkazdim. Ammo u har safar majlisiga, yig'ilishga ketayotganini yoki qanday qayd qilishni xalq ta'lifi bo'limiga yetkazishi kerakligini aytib, yana darsni boshqa o'qituvchilar zimmasiga tashlab ketadi. "Men sizlarning ishingiz bilan yuribman, darsimni o'tsalaring o'tibiszlarida" deydi ko'pincha. Ehtimol, rostan ham uning qog'ozbozik, majlisbozlik ishlari ko'pdir. Ammo o'quchilarning taqqdiri, ularga sifatli va uzlukslasab qolish uchun tayyorlanishimiz kerak" deyishadi. O'quchilarning haqiqatlariga qarshi biror so'z topolmay qolaman.

Shu o'rinda maktab direktori minzicha o'qituvchilarga o'mak qilib ko'rsatam, arziyi. Direktorimiz ham mutaxassislik fani ge-

Sinf rahbari minbari

Maktabda yuqori sinf o'quvchilariga sinf rahbarlik qilarkanman, odatda ishni Kaykovusning "Qobusnoma" asarini o'qib muhokama qilishdan boshlayman. Boisi, o'quvchillarga hunar o'rganish, do'stlilikning afzalliklari haqidada tushuncha beramiz. Sinfda o'g'il-qizlar orasidagi hurmat muhim. Do'stona sog'lom muhit yaratilsa, bolalar mакtabga xushkayfiyatda kelishadi.

O'quvchim bilan do'stman, siz-chi?

Sinf rahbari sifatida har bir o'quvchining tug'ilgan kunida kitob sovg'a qilishni yo'lda qo'ygamiz. Bu ham oddiygina ko'rinsa-da, ular o'rtasida do'stliki mustahkamlaydi. Va yana bolalarni hech qachon bir-biri bilan taqqsolmayman, aksincha, har biriga individual yondashaman. Masalan, bir bolaning sport bo'yicha yutug'i bo'lsa, boshqasining iqtidori san'atga moyil bo'lishi mumkin. Mana shu jihatlarni anglashga harakat qilaman. O'zlashtirishi sust yoki biror kamchilikka yo'l qo'ygan o'quvchi bilan alohida suhabat qilaman. Ko'p hollarda bolaning ota-onasiga murojaat qilishga shoshilmay, avvalo o'zi bilan do'stona muloqotda bo'lishga urinaman.

Albatta, har bir ota-onsa o'z farzandining xatti-harakatlari va bilmis saviyasi haqidagi yaxshi gaplar eshitishni istaydi. Ular sinf rahbari tomonidan rag'batlantrib turilsa, o'quvchi ta'lim-tarbiyasidagi bo'shlqlar bo'ldirilib boriladi.

Shoira BOZOROVA,

Romitan tumanidagi

1-maktabning olly toifali ingliz til fani o'qituvchisi

Maqollar va bolalar

Shaxs kamol topishida sog'lom muhit, oila va onaning o'rni beqiyos. Shu sabab farzand tug'ilmasidanoq bo'lajak onaning sog'ligiga, ruhiyatiga, bilim doirasini boyitishga katta e'tibor qaratish lozim.

Ta'lim-tarbiya jarayonini rivojlantirishda turli innovatsion texnologiyalar, AKT imkoniyatlaridan foydalishan yaxshi samara beradi. Yuz marta eshitigandan bir marta ko'rgan afzal deganlaridek, bola eshitiganidan ko'ra tomosha qilip o'rgansa, o'zi mustaqil bajarsa qiziqishi ortadi. Jumladan, farzandlarimiz bilan "Sanamay sakkiz dema" matematik o'yinini o'ynash jarayonini ko'rib chiqamiz. Kompyuter ekranida biror geometrik shakl beramiz. Savol qo'yamiz: ana shu geometrik shaklda nechta uchburchak, to'rburchak, aylana bor? Bola ularni topib, har bir shaklni kompyuterda Paint va Word dasturlari orqali chizib, natijani topishi lozim yoki bolaga yuqoridaq shakllar orqali odam rasmini chizish topshiriladi. Rasm chizish asosida bolaning temperamenti, qiziqishi va qobiliyatini aniqlab olishimiz mumkin. Vazifani bajarishga 15-20 daqiqa vaqt beramiz. Bundan ortiqcha vaqt bola sog'ligiga ta'sir qiladi. Psixologlarning ta'kidlashicha, ko'p ertagi eshitigan bola ochiqko'ngil va oqil inson bo'lib yetishar ekan. Ertaklar namoyishi yuzasidan savol-javoblar ularning nutqiy qobiliyatini, insoniy fazilatlarini oshiradi. Misol uchun, "Zumrad va Qimmat" ertagi asosida savol-javob uyushtiriramiz: kim yaxshi-yu, kim yemon ekani, o'zi ko'proq kimga o'xshashni xohlashi, yomonlikning mag'lub, yaxshilikning g'olib bo'lishi sabablari haqidada suhabat o'tkazsak maqsadga muvosiq bo'ladi.

"Davom ettir" o'yini orqali matematik maqolning birinchi jumlasini boshlab, qolganini aytishga undaymiz. Ekranda maqolning boshi beriladi, qolganini bolalar davom ettiradi. Masalan: "Yetti o'ichab ... kes", "Sanamay ... dema", "Birni kessang ... ek", "Qarz ... qo'ldan chiqar", "Bilagi zo'r ... ni yiqar, bilimi zo'r ... ni"...

Maqollar bolaning aqliy qobiliyatini o'stirib, chuqur mushohada yurutishga undaydi. Har bir sabog'imizga quyidagicha kirish qilsak, darsimiz yanada jonli va qiziqarli bo'ladi:

— Bolalar, bugun qaysi kun?
— Bugungi ob-havo sizga qanday kayfiyat bag'ishladi?

— Ko'nglimiz ham qorday oppoq va tinch bo'lishi uchun nima qilishimiz kerak? (jilmayish)

— Yaxshi kayfiyatizingizni atrofingizda-gilarga ulashing, bir-biringizga jilmayib qarang.

Shu kabi iliq, do'stona muhit farzandimiz kamolotida yetakchi o'rin egalaydi. Donolar fikriga ko'ra, farzandlarimizga qanchalik samimiy, mehribon, shirinson'z bo'lsak ulardan buyuk insonlar, daholar yetishib chiqadi. Tarixdan ma'lumki, Napoleon Bonapartni onasi har kuni "O'g'ilim, turing, sizni buyuk ishlar kutmoqda" deya uyg'otib, uning oddiy askardan imperator darajasiga ko'tarilishiga sabab bo'lgan.

Mahfuza YUSUPOVA,
Xonqa tumanidagi
7-maktab o'qituvchisi

Metod va mahorat

Matematika, fizika va biologiya mashg'ulotida aqlan charchagan o'g'il-qizlar texnologiya darsida buyumlar yasab zavqlanishadi. O'quvchi o'zi bajargan ishdan zavqlansagina samaradorlikka erishilgan bo'ladi. Bolalar dars mashg'ulotiga qiziqirish, albatta, o'qituvchining mahoratiga bog'liq. Buning uchun u timmay izlanishda bo'lishi lozim. Darsning nazariy qismini qisqaroq tushuntirish orqali ish qismiga o'tamiz. Odatda mashg'ulotning mazmunli bo'lishiga turli interaktiv metodlar yordam beradi.

"Rezyume" texnologiyasining qo'llanishi: sinf o'quvchilar soniga qarab, guruhlariga ajratiladi. Guruhlarga qog'ozning yuqori qismida yozuvni bo'lgan varaqlar tarqatiladi. Muammo: karam va uzum bargidan tayyorlangan do'Imalarning afzalligi va kamchiligini aniqlab berish. Har bir guruh o'z fikrlarini qog'ozda bayon etadi. Guruhlar tayyorlangan materialini taqdimot qiladi. Xulosa qismi o'qib berilmaydi. O'qituvchi boshqa guruhlardan taqdimot xulosasini chiqarishni talab qiladi, so'ngra taqdimot guruhi o'z xulosasi bilan tanishtiradi.

"Modellashtirish" metodi esa real hayotda va jamiyatda yuz beradigan hodisa va jarayonlarning ixchamlashtirilgan va soddalashtirilgan ko'rinishini sinf xonasida yaratish va ularda o'quvchilarning shaxsan qatnashishi va faoliyat evaziga ta'lim olishini ko'zda tutadi. Masalan, darsligimizda "Ayol-

lar to'g'ri bichimli yubkasi" loyiha chizmasi berilgan. Men rangli qog'ozlardan foydalanish holda shu loyiha chizmasi asosida bir nechta turli xil fasondagi yubkalmi model-lashtirib o'quvchilarga namuna ko'rsatib beraman, o'quvchilar o'zlarining fantaziyasidan kelib chiqqan holda, eskiz chizmalarini yaratib, modellashtirildilar. Ularga yordam tariqasida texnologik xarita tarqataman, shu xarita asosida o'zlar ish ketma-ketligini tushunib olishadi.

Dars oxirida o'quvchilar bilan suhbat o'tkazish uchun vaqt ajratilishi kerak. Bu esa o'z navbatida ishtirokchilarning natijalari, ularning amalga osghan va oshmagan umidlar, shuningdek, o'qituvchilarning o'z natijalari yuzasidan mulohaza yuritishlari uchun yaxshi imkoniyatdir.

Shohista SALAYEVA,

Xonqa tumanidagi

7-maktab texnologiya fani o'qituvchisi

Tajriba

Bola beg'ubor, u maktabga chiqqach ham

o'yinqaroqlik fe'lidan voz kecholmaydi. Shu bois ularni turli o'yin usulidagi mashqlar bilan darsga qiziqirish va bilimini oshirish kerak.

Masalan, "Quvnoq vagonlar" yoki "Poyezd" o'yini orqali o'quvchilar arifmetik amallarni bajarishlari jarayonida yo'l qo'yiladigan xatoliklarni bartaraf etishga o'rgatiladi. O'yin topshirig'iga ko'ra, doiraviy misollar yechish orqali o'quvchilarning bilimi mustahkmlanadi.

O'qituvchi o'quvchilarga quyidagicha savol beradi:

— Siz qanday transportlarni bilasiz?

Javob: — Avtobus, tramvay, trolleybus, poyezd, metro, yengil | mashinalar.

"Quvnoq vagonlar"da yechilgan misollar

O'qituvchi: — Juda to'g'ri javob berdingiz, endi biz sizlar bilan "Quvnoq vagonlar" o'yinini o'ynaymiz. Bu o'yinni turlicha o'tkazish mumkin.

1-topshiriq: Ko'rgazmali qurolda ko'rsatilgan misollarning javobini topish lozim.

$$17-2=15, 15+1=16, 16-8=8, 8+9=17, 17+0=17$$

$$18+2=20, 20-5=15, 15+4=19, 19-11=8, 8+10=18$$

Misollarning javobini topganlaridan so'ng uning qiziqarli tomonini topishga da'vat etiladi. Qiziqarliligi shundaki, o'quvchilar birinchisining javobi, ikkinchisining boshlanishi — "zanjir"ga o'xshash ekanligiga iqror bo'ladi.

2-topshiriq: O'quvchilarning oldiga misol yozilgan kartochka yopishilib qo'yiladi. Misollarning javobini tez va chaqqon topgach, o'quvchilar kim kimdan keyin turishini bilib oladilar. Bir o'quvchi parovoz, qolganlari vagonchalar bo'lib ketma-ket turib olishlari kerak. Xato qilgan o'quvchilariga yordam beriladi. Shu tariqa o'yin bir necha marta takrorlanadi.

3-topshiriq: Yuk tashuvchi poyezd vagonlariga sabzavotlar, mevalar yuqlab, ularni bir shahardan ikkinchi shahargajo'natish mumkin. O'quvchilar misollarning javobini topib, necha kilogramm jo'natilayotganini chaqqonlik bilan aytib berishlari lozim. Bu bilan bolalarning massa o'chovlari haqida olgan bilimlari mustahkmlanadi.

Mashhura KARIMOVA,
Yashnobod tumanidagi
204-maktabning boshlang'ich
sinf o'qituvchisi

Aks-sado

Ustozlarim ishini davom ettirayotganidan faxrlanaman

"Mařifat"ning 2020-yil 14-oktabrdagi sonida psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Mahmud Yo'ldoshevning "Darslik tuzgan (yozgan) dotsentlar" nomli tanqidiy maqolasi e'lon qilingan edi. Mazkur maqolada tanqid nishoniga olingan darslik muallifining tanqidiy maqola muallifiga yozgan javob maktubini ayrim o'zgarishlar bilan e'lon qilyapmiz.

Darslik tuzmagan (yozmagan) va bu ishi bilan faxrlanayotgan dotsent Mahmud Yo'ldoshev o'z maqolasida sobiq sovet davridagi "qiziq-qiziq odatlar" dan biri bo'lgan "dotsent", "professor" unvonlari nomi qadimiy o'lik lotin tilidan olingani hamda professor unvoni "katta ixtirolar qilgan, falon fanning ichida biror yo'nalishni ochgan kishilargagina berilgani" ni qayd etar ekan, o'z maqolasini o'sha davrni ko'rmagan, guvohi bo'Imagan mustaqillik davri avlodlari uchun yozganga o'xshaydi.

Birinchidan, respublikamizda o'nlab akademiklar, yuzlab professor-dotsentlar, fan doktorlari-yu nomzodlar XX asrning 70-yillarda nafaqat mamlakat, hatto xorijiy mamlakatlarda ham tanilganlar, nufuzlari baland bo'lgan. Ikkinchidan, biror narsani tanqid qilgan kishi o'sha narsaning o'miga muqobilini, ya'ni bu o'rinda o'zi to'g'ri deb hisoblagan unvon nomlarini taklif etishi lozim.

Maqola muallifining keyingi tanqid Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rasmiy unvonlar beradigan yagona tashkilot ekanligiga yo'naltirilgan. Bundan maqsad nima? Ehtimol, bu tashkilot biron ta darslik yozmagan pedagogimiz – ustozimizning professor unvonini olishlari uchun hujjatlarini qabul qilmagandir?! Shoshilmang, dissertatsiyalarini yoqlash, unvonlarni taqdim etish yaqinda oly o'quv yurtlariga beriladi. Sizga ham tanqid qilganining, lekin ich-ichingizdan istayotgan professor unvoni nasib etar.

Maqola davomida muallifning "dardi ochilib borgan". U qishloq xo'jaligi sohasida mutaxassislar tayyorlaydigil ilmiy dargohda falsafadan dars berib kelayotgan tabgor haqida so'z yuritganida, o'z yo'nalishida 5-10 nafar shogird tayyorlash kerakligini yozganida faqat o'ziga emas, balki o'z sohasidagi olyi ta'lim muassasalarida ishlamayotgan baracha pedagoglarga oid muammo ni qayd etgan. Ammo tanangan ikkinchi tomoni bor. O'zi tilchi bo'lsa-yu, nomzodlikni psixologiyadan yoqlab dars berayotgan bo'lsa-chi, uning professor unvonini olishi "saratanda yomg'ir yoq-qanday" bo'lmaydimi?!

Hurmatli maqola muallifi, "Skopus"da maqola chiqarishdan "ensangiz qotmasin". Sababi, mamlakatimiz olyi ta'lim muassasalarini xalqaro reytinglarda uyaladigan darajada past o'rnlarda tubid. Bu Sizga o'xshagan darslik, o'quv

qo'llamna yozmagani bilan faxrlanadi, Oliy attestatsiya komissiyasi talablaridan norozi pedagoglar ko'pligidan, mustaqillik davrida lotin yozuviga tayyorlariksiz o'tilgani, olyi ta'lim muassasalaridagi "bunkerlar" va korrupsiyaning gullab-yashnashi oqibatidir.

Ushbu tizimni qayta qurib, odamlarda ishonch, mutaxassislarda malaka, minimal standartlarga javob beradigan layoqat yaratish oson kechmaydi. Agar "Skopush", siz aytganingizdek, "bir" dolarlar nashrilar sohibi bo'lsa, o'zingizda 10-15 ta maqola to'planib qolgandir yoki darslik va qo'llanmalarni ataylab yozmaydigan psixolog Mahmud Yo'ldoshevda "Skopus"da e'lon qilingan ishlar ham yo'qmi?!

JAHON TARIXI



Endi darslik masalasiga to'xtalsak. Men o'tgan asrning 90-yillari oxirida 7-sinf "Jahon tarixi" darsligini nashr etirganimda hamkasblarimizdan biri: "Sizing darsligingizni respublika gazetasida tanqid qilishibdi", deb qoldi. Qiziqib o'qib ko'rsam, Prezident devonida katta lavozimda ishlaydigan, fan doktori unvona ega bo'lgan xodim muktab darsliklarini tahlil qilgan ekan. Taxminan quyidagi xulosalarni yozgan (yoki unga yozib berishgan): "Tursun Salimovning 7-sinf "Jahon tarixi" darsligida Mustaqil O'zbekiston haqida umuman yozilmagan". Hurmatli o'quv-



chi, agar 7-sinf "Jahon tarixi" darsligi dunyo mamlakatlarining o'rta asrlar tarixi (ilgari V-XVII asr o'rtalari)ga oid bo'lsa, qanday qilib, 1991-yil 31-avgustda mustaqillikka erishgan O'zbekiston Respublikasi haqida yozish mumkin. Ehtimol, bu sohada mutaxassis bo'lmagan kishi yuqoridagini tushunishi qiyindir. Lekin...

Maqola muallifi tilga olgan "Jahon xalqlari etnologiyasi" haqida so'z yuritsak. Men ushbu o'quv qo'llammani nashr etish uchun Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018-yil 14-iyundagi 531-buyrug'ini oлганман. Uning amaldagi nashri vazirlik homiyligida 2020-yilning yozida nashr etildi. Shuning uchun agronomlar tayyorlaydigan olyi o'quv yurti dotsenti, psixologiya fanlari nomzodining ushbu amaldagi kitob bilan ancha vaqtidan buyon tanishishni mo'ljallab yurgani hamda kitobning 2019-yil oxirida nashr etilgani haqidagi gaplari, yumshoqroq aytganda, haqiqatdan yiroq. Qolaversa, bu kitobning maqola muallifi faoliyatiga qanday aloqasi borligi nomalum. Shu sababli tanqid asosan imlo, toponimlar, yanada aniqroq aytadigan bo'lsak, lotin yozuvidagi matnga oid e'tirozlardan iborat.

"AQSH amerikaliklari" iborasi, mamlakatdagi tub aholi: hindular yoki afroamerikaliklarga nisbatan ishlatalidi. Men o'quv qo'llamnaga ilk bor "Kavkazorti xalqlari" o'miga bunga geografik nuqtayi nazardan olganda tog'ning old tomonidagi: gruzin, arman, ozarboyjonlarga nisbatan "Kavkazoldi xalqlari" iborasini kiritdim. Lekin nima bo'lganda ham, mendan maqola muallifining "ichagini uzgan" xato, kamchilik va nuqsonlar uchun mas'uliyat yuki olib tashlanmaydi. Shuning uchun darslik va qo'llamnalar yozmagan Mahmud Yo'ldoshev hamda boshqa kitobxonlarga shuni va'da beramanki, yaqinda tayyorlanayotgan 3-nashrda bu kamchiliklar bartaraf etiladi.

Shuni qayd etish joizki, kitob "Vneshin-vestprom" orqali sotuvga emas, balki universitetlar talabalari uchun kutubxonalarga tarqatilgan. Masalan, u O'zbekiston Milliy universiteti tarix fakulteti kutubxonasi 2020-yil sentabrda kelib tushgan. Hurmatli Mahmud Yo'ldoshev kitobni kutgani va uning 2020-yilning boshida maqola muallifi qo'liga kelib tushgan unchalik tushunarli emas. Bu o'rinda ushbu kitob 2019-yil so'ngida O'zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo'yicha muvoqiflashtiruvchi-metodik markaz homiyligida 150 nusxada "Fan" nashriyotida chiqarilib, 2020-yil 8-yanvar kuni taqdimotoi o'tkazilganini ham aytish joiz. Havaskor-etnolog muallifining maqolasida qo'yilgan sanalar aslida o'sha nashrga taalluqli.

Birinchi nashring haqqi, mening vaqtim va boshqa xarajatlarimni hisoblamaganda, 5 ta kitob, ikkinchi nashrda 25 dona qo'shimcha kitob bo'ldi. Balki Siz bunday ko'p vaqtini, shaxsiy mablag'ni sarflashni talab qiladigan ishlarni bajarmasdan to'g'ri qilsiz. Ammo, afsuski, men Sizning toifangizdan emasman. Ustozim – O'zbekistonda xizmat ko'satgan fan arbobi, tarix fanlari doktori, professor Goga Hidoyatovning suhabatini oglani borganimda bir dono gapni aytgan edi: "Bilasanim, menga Moskva universiteti (ustoz o'sha yerda o'qigan) tarixni yozishni uqtirdi, Oksford universiteti (unda ilmiy stajirovkada bo'lgan) qanday yozishni o'rgatdi". Ustozning so'nggi asarlari "Somoniylar inqirozi", "Shayboniyalar, o'zbeklar, O'zbekiston" va "Turk sivilizatsiyasi" ayrim sabablarga ko'ra keng kitobxonlar ommasiga yetib bormadi.

Yana bir ustozim – elshunos olim, O'zbekistonda xizmat ko'satgan fan arbobi, professor, falsafa fanlari doktori Iso Jabborov Milliy universitetda "Etnologiya" kafedrasiga asos, solgan, o'ttizdan ortiq darslik, monografiya, o'quv qo'llanmalar muallifi. Ustoz 85 yoshida Moskvada Rossiya Federasiyasiga Fanlar akademiyasi Etnologiya va antropologiya instituti homiyligida "Qadimgi Xorazm" monografiyasini chop etti. Men ushbu ustozlarim bilan faxrlanaman. Ularning ishini davom ettirayotganiga shukrona aytaman.

Xulosa qiladigan bo'lsak, tabiiyki, men Sizdan o'mak olib internet yoki gazetalardagi maqolalar muallifi bo'lgandan ko'ra, umrimning qolgan qismini ham baholi qadrat yangi darsliklar, o'quv qo'llamnalar yozib, mashhur antropolog va etnologlar asarlarni o'zbek tiliga tarjima qilib, yoshlarnizni mamlakatimizning kelajagini qurishga munosib mutaxassis etib tayyorlashga xizmat qilish niyatidaman. Mening javob muktabimni o'qigan xolis mutaxassislar, ko'psloni shogirdlarimiz fikrimga qo'shiladilar degan umiddaman.

Tursun SALIMOV,
O'zbekiston Milliy universiteti Tarix
fakulteti "Antropologiya va etnologiya"
kafedrasi professori, tarix fanlar nomzodi

8 inson — tabiatning bir parchasi, tabiat unga yashash uchun berilgan makon, yashaganda ham faqat bir marta aql va zavq bilan yashashi kerak

Mutolaa zavqi

"Adabiyot fikr, tuyg'ularimizdag'i to'lg'innarni so'zlar, gaplar yordami bilan tasvirlab, boshqalarda ham xuddi shu to'lg'innarni yaratmoqdир", degan edi ma'rifikatparvar Abdurauf Fitrat. Adabiyot olamida o'zining noyob ist'e-dodi bilan kitobxonlar ko'ngliga kirib borgan, ezzulikdan saboq berib, to'g'irlik sari chorlaganlar bisyor. Adabiyot millat tanlamaydi, unga chegara qo'yilmaydi. Chinakam yaxshi asar har qanday sinovlardan omon o'tib, o'qilaveradi...

"Mening uch azim daryom bor..."

Asarlarida mif, afsona va rivoyatlardan detal sifatida umumli foydalangani ijodining o'ziga xos jihatlaridan biri bo'lgan Chingiz Aytmakov nafaqturkiy xalqlar, balki jahon adabiyotining ham yirik vakili sifatida tan olinmoqda. Uning "Oq kema" qissasida insoniy go'zallik, ezzulik va hayot ziddiyatlari, ekologiya muammolari tahlil etiladi. Asar bir qarashda bola, uning fojiasi, ya'nı ardoqli orzusining barbob bo'lishi haqida yozilgan deyish mumkin. Biroq unda yana bir — tabiatni asrash g'oyasi bor. Barcha tirik jonzotlar — inson-u Jonivorlar, qushlar-u o'simliklarning ildizi bir ekaniga ishora qilinadi. Adib fikrini ravshanroq ifodalab berish uchun Shoxdar ona bug'u haqidagi rivoyatni keltiradi. Unda insonning kelib chiqishini qadim ajoddalar e'tiqodiga ko'ra, jonivorlarga bog'laydi. O'rmonda paydo bo'lgan bug'ularni ko'rgan Mo'min chol bolaga shu rivoyatni so'zlab berib, uning qalbida tabiatning nodir bu jonzotlariga mehr uyg'otadi. O'rozqul va hamtovoqlarining bug'ularni qirg'in qilishi, bobosining bu fojianing oldini olmagani esa bola qalbida umidsizlik, tushkunlik paydo qiladi. Ko'nglida tabiat kushandalariiga nisbatan nafrat bosh ko'taradi. Bolaning o'limi aslida isyon: u qadriyat nima-yu, insoniylik nimaligini bilmaydigan, bug'ularni avosiz qirishga qodir odamlar orasida yashashni istamaydi.

Adib tabiatsiz insoniyat bo'lmagilini yaxshi angaydi. Bu haqida su hujbatlardan birida shunday deydi: "Men inson tabiatni qadrlay bilishi, undan zavq, boshqa olishi kerakligini bilaman. Shuni ham tushunib yetish kerakki, inson — tabiatning bir parchasi, tabiat unga yashash uchun berilgan makon, yashaganda ham faqat bir marta aql va zavq bilan yashashi kerak".

Yozuvchining asarlarini insoniyatni ogohlitsa chorlab chalining bongga o'xshaydi. Ekologik muammolarni dolzarb masalaga aylanayotgan, inson omilining tabiatga ta'siri kuchayib borayotgan paytda uning asarlarini tabiatga munosabati o'zgartirish lozimligini ta'kidlab turadi. Bu munosabat o'zgarmasa, o'rtadagi sanjirga putur yetib, zaifashib boraveradi.

"Sohil bo'ylab chopayotgan olapar" asari umid haqida doston deyish mumkin. Hayotga endi kirib ke layotgan yosh bolaning kelajakni saqlab qolish uchun o'z jonini qurban qilgan yaqinlarining mardligi ifoda etiladi. Dengizda eng so'nggi tomchi sunvi ichib qo'ymaslik uchun kattalar birin-ketin o'zini suvgaga otib, halok bo'ladi. Agar ular o'zlarini qurban qilishmaganda kuchli chanqoqlikdan bola nobud bo'lardi. Bolaning halokati kelajakning yo'qolishini anglatadi. Kemadagi so'nggi tomchi suv sabab tirk qolgan bola ona makoniga yetib boradi. Insonning yelkasidagi kelajak mas'uliyati haqidagi xulosa. O'zi yashab turgan makon bolalariga ham xizmat qilishi uchun barcha tabiat ne'matlarini asrashga chorlaydi. Shular haqida o'ylar ekanman, Rauf Parfining shu so'zlar beixтиyor yodimga tushadi: "Mening uch azim daryom bor. Birinchisi — Chingiz Aytmakov...".

Ro'ziqul OCHILOV

Adabiy tahlil

Umumbashariy dard

Nazar Eshonqulning "Og'riq lazzati" hikoyasini o'qib

Adabiyotning quchog'i katta, himmati cheksiz. Shu tufayli uning erkatofiga aylangan, himmatidan bahra olib, o'ziga o'xshagan sanoqsiz boshqa yozarmanlar kabi uni achenlab yotgan ijodkor zoti bisyor. Lekin vaqt atalmish oliy hakam mavjud ekan, bunday erkatoylar qachondir o'z samimiyyati, layoqatiga qarab baholanib birin-ketin sanoqdan tushib qolaveradi. Buni yaxshi his etgani uchundir, ehtimol, haqiqiy iste'dod adabiyotning quchog'ida erkalanib-suykalanishni xush ko'rmaydi.

Aksincha, u ko'p yillardan beri o'zgarmas va mustahkam deb tan olinigan adabiy mezonlar-u qoliplarini, badiyi tasavvur chegaralarini parchalagan holda adabiyot maydoniga kirib keladi, ta'bir jozi bo'lsa, adabiyotning ham aqlini shoshib qo'yadi. O'zbek adabiyotining katta adiblaridan biri Nazar Eshonqulni ham biz qo'rqmasdan xuddi shunday — o'z nafasi, o'z ta'sir ko'lamiga ega yozuvchi, desak bo'ladi. Shu bois uning ijod namunalari ham milliy, ham umuminsoniy ruhda yozilgan, umumbashariy dard ilo sig'orilgan. Nazar Eshonqulning adabiyotimizda tutgan o'rni va boshqa ijod namunalarini bir yoqqa surgan holda, ijodiga bo'lgan munosabatini birgina "Og'riq lazzati" hikoyasidan o'lgan taassurotlarim orqali bayon etishga harakat qilaman.

Prujinasmuson asos

Tezis nuqtayi nazaridan olib qaralganda "Og'riq lazzati" hikoyasi prujinasmuson asosda qurilganga o'xshaydi. Bu prujinaning har bir halqasi ma'nova mantiqiy xulosalardan iborat. Eng tashunga sazovor tomoni shundaki, o'quvchi mutolaa jarayonida halqadan halqaga o'gani sayin undagi ma'no va mohiyat kengayadi — oydinlashdi va ayni paytda egiladi hamda bukiladi. Mana shu sababga ko'ra mazkur asarga o'lab rakershalarida nazat tashlamoq va asarni undan ham ko'proq nuqtayi nazaridan turib sharhlamoq mumkin.

Shunday qilib, men asarga, avvalo, "ramz" larga asoslangan tamaddun adabiyoti nuqtayi nazaridan nigoh tashlashni lozim topdim. Asardagi professor ham, tomoshabin ham, tasvirlangan og'riq ham ramziy ifodadir. Chunki har qanday jamiyat va har qanday tuzum, istaymizmiyo'qmi, insonni mana shunday azogba girifor etadi. Axir asrimizgacha kechgan davrda inson tafakkurining mahsuli bo'lgan yadrovy qurollar, insoniyat yushtirgan inqilob-u bombardimonlar — hammasi ham odamzdni butunlay halok etishga, bani basharni mahv etib, yer yuzidan butunlay supurib tashlashga qaratilgan emasdi. Bu harakatlarining bir qismi odamni halokatga duchor etgani buda, yana bir qismi saodat ulashish uchun edi. Biroq bugungi kunda nafaqat gumanitar, balki aniq fanlar ham shuni tasdiqlaydi, ko'pchilik o'ylaganiday dunyo va insoniyat qismlardan iborat emas, aksincha, u bir butundir! Shuning uchun insoniyatning tuzum va millatlarga bo'linib, o'z manfaati yo'lida o'ylab topayotgan halokat vositalari qurbanbi o'zi bo'lib qolaveradi... Demak, asarda tasvirlangan mahkumlar — o'zining yarasiga o'zi tuz sepib, o'zini o'zi azob-uqubatlariga girifor qilayotgan jamiyat; profes-

sor — bu kabi nayranglarda asosiy rol o'ynaydigan ziyojilar; tomoshabinlar — insoniyatni qovurib, bir-biriga gijgijlab, o'z etini o'yeishga majbur qilayotgan ayrim "yo'lboschchi", inqilob-u bombardimonlar asoschilari, Kamyu ta'biri bilan aytganda, "dunyo hukmdorlari" dir. Asardagi to'rtinchini mahkum borasida esa, men bu yerda mualif bolsheviklarning kommunistik partiyasini nazarida tutmay-optimikan, degan xayolga bordim. Chunki partiyalar qurilishida bolsheviklar kommunistik partiyasi to'rtinchini o'rinda tutgani bizga ma'lum. Boz ustiga asardagi "...qadim deb pahlavonlarde baxtiyor qiyofasini ko'rib u aynan shu lahzani hech qaysi jannatga almashtirmaydi uni hech qaysi payg'ambar, hech qaysi muqaddas kitob bu lazzatdan mahrum eta olmaydi deb o'yardingiz" qabilidagi so'zlar, qolaversa, to'rtinchini mahkum o'lim topgandan keyin ham bu zaminda qolmay, o'zga bir zaminda — lazzat olamida qolgani shunday o'yashga majbur etadi. Axir 72 yil hokimiyat tepasida turgan kommunistlar partiyasining asl basharasi o'chilib, hokimiyatdan qulaganidan keyin ham uning xayrioxhlari o'z g'oyalariga sadoqatdan kechmay, o'sha tuzum va jamiyatni yoqlab yashab o'tgani hech kimga sir emas...

Asarni mutolaa qilar ekanman, har bir jumla, har bipta hodisida mualifining zaharxanda tabassumi, aslida yig'iga aylanib otlib chiqishi kerag-u, ammo qorachiqlarida bo'zlov bo'lib qotib qolgan kinoyali nigohi ta'qib eta bordi. Tasavvurimda mualifining bu zaharxanda achchiq kinoyaga yo'g'rilgan nigohi butun insoniyatning asrlar osha yashab kelgan shu bugungi hayotigacha boqib turganga o'xshadi. O'zimcha insoniyatning o'z etini o'zi shilib lazzat olayotganiga, o'zini o'zi azoblashning yangidan yangi usullarini ijod qilayotganiga o'tmish va bugundan taqqoslar axtarar ekanman, bamsolis savollar girdobiga tushib, chirpirak bo'layotganga o'xshab qoldim. Eng achinarli, bu savollarga javob topishga qanchalik urinsam, o'zim insoniyatning qotili deb bilgan yoki aksincha o'zim insoniyatning rahnamosi deb hisoblagan ayrim kishilar, kerak bo'lsa, ota-bobolarim haqidagi tasavvurlarim ham shunchalik o'zgarib borardi. Ha, asar mutolaasi jarayonida ko'nglimda tug'ilayotgan bu kabi savol va ishtibohlarning tugal javobi yo butkul qayta tiriromoq, yo batamom ma'naviy o'lim bilan teng edi, nazarimda!

Taskin

Axir Yer kurrasini insonga yashash uchun zamin etib belgilagan Buyuk Yaratuvchining o'zi ham qodir zot bo'laturib bandasi uchun hamma narsani yaratib bermadi. Aksincha, ko'pgina ishni

bandsining o'zi bajarishini, bu yo'lida mehnat qilishini... hamda azob cheki-shini iroda qildi. Demak, asarga boshqa tomonidan qaralganda inson hayotining o'zi azoblanishdan, og'riq lazzatini totib, bu azobni sevib va uni boshqalar bilan bo'lishib yashashdan iborat edan. Tuzum va jamiyatning nomukammal qoidalariga ko'z yumib, asarni undan-da chururoq pozitsiyada tahlil qilishga urinsak, Nazar Eshonqulning "Og'riq lazzati" hikoyasini bani bashar qismatidagi o'zgartirib bo'lims qonun, insoniyat uchun oldindan o'qilgan hukm olyi haqidagi hikoya deb baholamoq ham xato bo'lmaydi. Ya'ni yashash asli og'riq lazzatini emasmi?

Kichik bir e'tiroz


Inson qo'li bilan yaratilgan hech qanday yaratiq mukammal emas. "Og'riq lazzati" hikoyasini ham kitobxon, ham adabiy tadjiqotchi sifatida sharhlashga urinlar ekaman, shu o'rinda kichik kamchilikni-da sezgandyga bo'laman. Axir adabiyotini yaxshi tushunadigan har bir odamga shu narsa ma'lum: badiiy asardagi badiiy haqiqat hamisha hayot haqiqati bilan hisoblashishi, kerak bo'lsa, unga ergashishi shart. Misol tariqasida keltirishim mumkinki, Gabriel Garsia Markesning "Yolg'izlikning yuz yili" asarida lo'li Melkades olib kelgan ohanrabdan har qanday o'quvchi hayratga tushadi. Yoki bo'limas Markes o'z asarida "Polkovnik Aureliano Bueno"da 32 marta isyon ko'tardi va 32 marta ham mag'lib bo'lidi, 4 marta suiqasddan, 72 marta pistirmalardan omon qoldi...", deb yozgan bo'lsa, biz asar davomida bu suiqasd va pistirmalarning hammasidan xabardor bo'lishimiz mumkin. Asardagi Makondaga kirib kelgan lo'lilar, ohanrabo va albatta polkovni Aureliano Bueno'ning hayotidagi taqqoslar ham bu bir ramz, lekin bular bari bizga reallik bo'lib tuyuladi va hayot haqiqatiga hech qanday putut yetkazmaydi. Shu jihatdan olib qaralganda dunyo adabiyotidagi "izm"larni yaxshi tushunmaydigan, ya'ni "simvol"larni qabul qila olmaydigan ko'p sonli an'anaviy kitobxonlar uchun "Og'riq lazzati" hikoyasida tasvirlangan voqealar mantiqqa — hayot haqiqatiga ziddir. Asardagi ifoda qanchalar joni, jumlar devori qanchalik mustahkam bo'limasini, undan birgina shu "ramz" tushunchasini olib tashlasak, hikoyadagi o'zini azoblash evaziga tomosha ko'rsatilgan mahkumlar ham, tomoshabin, professor ham yolg'on-yashiq, to'qima obrazlarga aylanib qoladi hamda biror o'quvchi asar voqealarini hayotdi. Agar muallif asar voqealarini tush sifatida bergan yoki adabiyotda ko'p sinalgan usullardan bitasi: telba yo sog'ligi noma'lum biror ikimsaniga qayta qayta qiladi.

Nima bo'lganda ham, bugungi o'zbek adabiyotida Nazar Eshonqul o'zining mustahkam o'miga ega, uning asarlaricha "Og'riq lazzati" hikoyasi ham o'quvchini qayta-qayta mutolaa qilib ichki dunyosini boyitishga undaydigilasardir.

Bayram ALI

"NAVOIY KON-METALLURGIYA KOMBINATI" DAVLAT KORXONASI VA KOMBINAT KASABA UYUSHMA QO'MITASI

*Munis ayollarimizni
—mart — Xalqaro xotin-qizlar
bayrami munosabati bilan
samimiylaymiz.
Sizlarga mustahkam sog'liq,
oilaviy xotirjamlik,
ona-Vatanimizning
ravnaqi yo'lidagi faoliyattingizda
yangidan yangi
muvaqqiyatlar tilaymiz!*



Saylov – 2021

Saylovchilar ro'yxati – sayloving muhim hujjati

Saylovchilar ro'yxatini tuzishning huquqiy asoslari

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga asosan 18 yoshga to'lgan fuqaro davlat hokimiyati vakillik organlariga saylash huquqiga ega bo'ladi.



Bugungi kunda saylovchilarning elektron madaniyatini yuksaltirish dolzlar ahamiyatga ega. Saylovchining saylov huquqini amalga oshirishi uning saylov kampaniyasidagi elektoral madaniyatini ko'rsatadigan asosiy mezon hisoblanadi. Ko'philik hollarda saylovchining elektoral madaniyatni uning u yoki bu siyosiy partiya xayriyohligi bilan belgilanadi, degan fikr ham uchraxdi. Shu bilan birga saylovchining o'z xohish-irodasini ifoda etib davlat va jamiyat boshqaruviga o'z vakilini tanlashdagi ishtiroki uning elektoral madaniyatni darajasini ko'rsatadi.

Shunday ekan, eng avvalo, saylov qonunchiligi haqida saylovchilarga ko'proq ma'lumot berish va ushbu qoidalarni amalga oshirishda saylovchining huquqlari va mas'ul xodimlarning majburyatlarini o'rganishimiz zarur.

Keling, shu haqda so'z yuritar ekanim, saylovchilar ro'yxatini tuzish masalalariga kengroq to'xtalib o'tsak.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga asosan O'zbekiston Respublikasining fuqarolari davlat hokimiyati organlariga saylash va saylanish huquqiga egadir. Har bir saylovchi bir ovoziga ega. Ovoz berish huquqi, o'z xohish-irodasini bildirish tengligi va erkinligi qonun bilan kafolatlanadi.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 21-moddasida ham "Har bir inson bevosita yoki erkin saylangan va killar vositasi orqali o'z mamlakatini boshqarishda qatnashish huquqiga ega", degilgan. Ushbu norma xalqaro umum e'tirof etilgan qoida ekandan dalolatdir.

Saylovchining saylovida ishtirokini ta'minlash uchun hamda boshqa joyda ikkinchi marta ovoz berishining oldini olish maqsadida saylovchining ovoz berish joyini belgilash, xuddi shuningdek, bir joyda yashayotgan ko'plab saylovchilar ovoz berishini o'tkazishga qulaylik yaratish maqsadida saylovchilar ro'yxati. Shuning uchun saylovchilar ro'yxati saylov kampaniyasi davridagi eng muhim va hal qiluvchi hujjatlardan biri hisoblanadi.

Saylovchilar ro'yxati tuzilishi — fuqarolarning umumiyyat, teng, to'g'ridan to'g'ri saylov huquqini — xalqaro saylov

standartlarini ro'yogba chiqarishda muhim ahamiyatga ega.

Saylovchilarning ro'yxatga olinishi ovoz berish huquqiga ega bo'lgan fuqaroning saylova shaxsan o'zi ishtirok etishini ta'minlovchi hamda saylovchini ro'yxatga olish imkonini beradigan asosiy vosita hisoblanadi.

Buning uchun saylovchilar ro'yxatlarining tuzilishi va yangilanishi shaffolik va aniqlik asosida amalga oshirilishi kerak. Bunda har bir ovoz berish huquqiga ega fuqaroning ro'yxatdan o'tkazilishi ta'minlanishi lozim.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan "Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi pakt"da qayd etilganidek, har bir davlat o'z hududida turgan va o'z yurisdiksiyasi ostida bo'lgan barcha shaxslarning huquqlarini hech bir ayirmachiliksiz, jumlaldan, irqi, tana rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy yoki boshqa e'tiqodidan, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy ahvoli, tug'ilishi yoki o'zga holatidan qat'i nazar, hurmat qilish va ta'minlash majburiyatini oladi. Paktda ishtirok etuvchi davlatlar erkak va ayollar uchun ushbu paktida nazarda tutilgan barcha fuqarolik va siyosiy huquqlardan bir xilda foydalanimishini ta'minlaydi.

Mamlakatimiz saylov qonunchiligiga ushbu qoida implementatsiya qilingan bo'lib, ushbu norma O'zbekiston Respublikasi Saylov kodeksining 4-moddasida aks ettirilganini ko'rishimiz mumkin. Unga ko'ra: "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qonunchilik palatasi deputatlari va mahalliy Kengashlar deputatlari saylovchilar umumiyyatdir. Saylov kuni o'n sakkiz yoshga to'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari saylash huquqiga egadir. Fuqarolar jinsi, irqiy va milliy mansubligi, tili, dingga munosabati, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsxi va ijtimoiy mavqeyi, ma'lumoti, mashg'ulotlarning turi va xususiyatidan qat'i nazar, teng saylov huquqiga egadir".

Saylovchilar ro'yxatiga O'zbekiston Respublikasining barcha saylov huquqiga ega bo'lgan fuqarolari kiritiladi.

Saylovchilarni ro'yxatga olish jarayoni barcha huquqqa ega bo'lgan say-

lovchilarga imkoniyat yaratish uchun muhim va demokratiya "bir kishi, bitta ovoz, bitta qadriyat" asosiy principini amalga oshirishga xizmat qiladigan tadbirdir.

Saylovchilar ro'yxati hammaga teng sharoit yaratilishini, aniq va keng qamrovli bo'lishini va uning jarayonlari baracha manfaatdor tomonlar uchun ochiq bo'lishini ta'minlash saylovni boshqa-rish organlarining eng muhim vazifasi hisoblanadi.

Ko'rib turganimizdek, saylovchilarni saylovchilar ro'yxatiga kiritishning huquqiy asoslariga konstitutsiyaviy qoidalari, saylovchilarni ro'yxatga olishni tartibga soluvchi saylov qonunchiligining qoidalari, saylovchilarni ro'yxatga olish bilan bevosita bog'liq qonunlar, fuqarolik holati to'g'risidagi qonunlar, boshqa tegishli qonunchilik, masalan, til to'g'risidagi qonunlar yoki fuqarolik to'g'risidagi qonunlar, qonun-qoidalarni amalga oshirish tartibini belgilaydigan ma'muriy qoidalari va normalar ham kiradi.

Saylovchilarni ro'yxatdan o'tkazish ovoz berish huquqiga ega bo'lganlar uchun saylovchilarda ishtirok etishida tenglikni ta'minlashning muhim asosidir.

Sinchiklab nazar solsak, ro'yxatdan o'tgan saylovchilar sonidan kelib chiqqan holda, saylov okrugi soni va saylov uchastkalarining joylashuvni, saylov bulletenlari soni va chop etish uchun miqdori, ular bilan saylov uchastkalarini ta'minlash hamda saylovchilarning ovoz berishda ishtirok etishini baholash kabi muhim qarorlar qabul qilinadi.

Har bir saylovchi faqat bitta saylovchilar ro'yxatiga kiritilishi mumkin. Saylovchining ikkinchi saylovchilar ro'yxatiga kiritilishi saylovda tenglik prinsipining buzilishiga sabab bo'ladi.

Ushbu holatning saylov uchastkasi da bor-yo'qligi bиринчи navbatda okrug va uchastka saylov komissiyasi a'zolari tomonidan, shuningdek, kuzatuvchilar tomonidan saylov jarayonida sinchiklab o'rganiladi.

Saylov kuzatuvchilarining saylovchilar ro'yxatini baholashda e'tiborga olishlari lozim bo'lgan ushbu ro'yxatning aniqligini belgilovchi bir qancha jihatlar mavjud:

— har bir ma'lumotlar to'plami ovoz berish huquqiga ega bo'lgan bir kishi bilan bog'langan bo'lishi kerak;

— ma'lumotlar fuqarolik holati yoki yashash joyidagi so'nggi o'zgartishlarni, shuningdek, inson hayotidagi boshqa voqealarni aks ettiruvchi yangi ma'lumotlardan iborat bo'lishi kerak;

— ro'yxat to'liq bo'lishi lozim, shu jumladan, ovoz berish huquqiga ega barcha shaxslar hisobga olingan bo'lishi kerak;

— ma'lumotlar imlo yoki boshqa xatolarni o'z ichiga olmasligi zarur.

Saylovchilar ro'yxatiga har bir saylovchining familiyasi, ismi, otasining ismi, tug'ilgan sanasi va yashash joyi manzili kiritiladi. Saylovchilar ro'yxatiga ma'lumotlar aniq, tushunarli, sanalar va joy manzillari to'g'ri kiritilishi shart.

Saylovchilar ro'yxatini tuzish bo'yicha xalqaro tajriba

Saylovchilar ro'yxatini tuzishda xalqaro tajribadan nimalarni o'rganish mumkin?

Saylovchilar ro'yxatida saylov o'tkaziladigan yil va saylov kuni 18 yoshga to'lgan saylovchilarning tug'ilgan yili, oyi va kuni ko'rsatilgan bo'lishi kerak. Mazkur holat saylovda "bir saylovchi — bir ovoz" tamoyilini amalga oshirishda muhim hisoblanadi.

Fuqarolarning saylash huquqi(faol saylov huquqi)ga ega bo'lishi uchun belgilangan yosh chegarasi turli mamalakatlarda turli. Masalan, Braziliya, Kuba, Nikaragua, Eron davlatlari fuqarolar 16 yoshdan, Indoneziyada 17 yoshdan saylov huquqiga ega bo'lsa, ayrim mamalakatlarda bunday huquqni olishga bo'lgan chegara yoshi ancha yuqori belgilangan.

Malayziya, Marokash, Boliviya fuqarolar 21 yoshga to'lganidan keyingina saylash huquqiga ega bo'lishadi. Buyuk Britaniya, Fransiya, Ispaniya, Germaniya, Chexiya, Rossiya, Xitoy, Ukraina, Belarus va boshqa ko'philik davlatlarda ham bizning mamlakatimizda singari saylov kunigacha yoki saylov kuni 18 yoshga to'lgan fuqarolar saylash huquqiga ega.

Italiyada parlament quyi palatasi deputatligiga, mahalliy hokimiyat va killik organlariga deputatlarni saylash uchun fuqaro 18 yoshga, Senatga saylovchilarda ishtirok etish uchun esa 25 yoshga to'lgan bo'lishi tabab etiladi.

Jahon amaliyotida saylovchilarni ro'yxatlarga kiritishning turli shakllari qo'llaniladi. Xalqaro tajribaga ko'ra qonunga bog'liq ravishda saylovchilarni ro'yxatga olish jarayoni faol va nofaol bo'lishi mumkin.

Faol tizimda — saylovchilar saylovchi sifatida ro'yxatga olimish uchun ariza bilan murojaat qilishi yoki boshqa faol harakat qilishi kerak. Nofaol tizimi mamlakatlarda — fuqarolar o'z nomidan qandaydir bir choralar ko'rishi shart emas, saylovchilar ro'yxati esa mahalliy hokimiyat organlari olib boradigan aholi ro'yxati asosida tuziladi.

Ba'zi davlatlarda ovoz berish uchun saylovchilar o'zlarini tasdiqlovchi hujjatni — elektron saylovchilar kartasini (masalan, Albaniya, Latviya) taqdim etishlari shart. Buni olish ayrim davlatlarda bepul (Latviya) yoki pullik (masalan, Albaniya, uni olish uchun 9 yevro to'lanishi shart) amalga oshiriladi.

Ba'zi davlatlarda saylovchilar nofaol (standart) va faol (qo'shimcha) ro'yxatga olish usullari ko'zda tutilgan, bunda faol (qo'shimcha) ro'yxatga olish usuli saylovchilarning muayyan toifalariga nisbatan qo'llaniladi (masalan, Bolgariya, Vengriya).

Bahodirjon YUNUSOV,
O'zbekiston Respublikasi
Markaziy saylov komissiyasi a'zosi
(Davomi keyingi sonda.)

Iftixor

Nima desangiz deng: o'zbek uchun oiladan qiziqroq mavzu yo'q.

Quyoshga yaqin odamlar

yoxud Sodiq muallim bilan bir piyola choy ustida gurung

Kuzatgansiz, quyosh ertalab tog'lar orasidan bo'y ko'rsatadi. Tog'liklar esa quyoshni birinchi bo'lib qarshi oladilar. Boysun markazidan chiqib Bog'olo tomoniga o'rslab ketayotgan odam shaharning sekkingina qishloqqa aylana borganligini sezmay ham qoladi. Toqqa tutashib ketgan bu qishloq ko'chalarini piyoda kezishning o'zi bir rohat. Yo'l chetidagi nuroniy tutlar sizga moziydan so'zlaydi. Odamlari esa dilkash, semulozamat. Deylik, ulovda o'tayotib shu yerlik biron yo'lovchiga bexosdan suv sachratib qo'ysangiz: "Bo'luberadi, xijolat tortmang, buyog'i endi boysunchilik", deya yo'lida davom etadi. Buni tog' odamlari ko'nglining kengligiga yo'ysak-da to'g'ri bo'lar.

Bog'boloni, uning sodda va bag'ridar yo odamlarini Erkin A'zam o'z hikoyalarini bilan ko'zimga yaxshi ko'rsatib tashlagan, desam aslo mubolag'aga yo'yamang. Qolaversa, uzoq yillarda Boysunda ishlaganim bois, bog'bololiklarning ko'pini yaxshi tanimani.

Ana shu qishloqda Sodiq Qosimov degan bir otaxon yashaydi. Boysunkilar ta'biri bilan aytganda – Sodiq muallim! Bir umr maktabda ishlagan. Gapni esa chertib-chertib gapiradi, o'zi sermulohaza odam.

Qish kunlarining birida u kishinikiga borib qoldik. Ochiq chehra bilan istiqbolumizga chiqdi, to'rlang-to'rlang qilishdi. Subhatimiz esa darhol qo'oldi. Otaxonning boshini bir yonga ehib, labining uchgini bilan muloyim so'zlashlari, tez-tez kirib-chiqayotgan o'g'liga "dasturxonada kamchilik yo'qimi?" degan ma'noda ko'zi bilan buyruq anglatishlari haqiqiy donishmand odam qiyofasini xayolimda jondantirib yuborgandek edi. Yoshi saksandan hatlagan "boboy"ning gapirgancha chehrasi ilkis yorishib ketishi, hamshuhbati so'zlayotgan chog'da har so'zdan ma'no lib qolmoqchi bo'lgandek ilinj ila qulqoq solib turishlari ham nainki g'oyat tanish, hatto qadron edi.

Ilgarilar ba'zi jurnalistlar faqat unvondor odamlar haqida yozishni xush ko'rishardi. Hozir bu narsa ancha erish tuyulib qoldi. Ayrim odamlarning: "Jamiyatni ko'krigidagi medallarini faqat jarang-jurunglitar yuradiganlar qurgan emas, nima, boshqalar sholi paykalda chumchuk qo'rib yurgannimi?" degan pisandalarida han jon bor. Bog'bololik Sodiq muallim esa butunlay boshqaga odam. Jamiyatni tasniflashga chog'langan kimsalar tili bilan aytganda, "oddiy o'qituvchi". Minbarlardan turib hayqirmagan, gapirsa ham faqat to'g'ri gapirgan, sinfxonada esa bor bilimini o'quvchilarga ularishdan charchamagan, bor mehnir farzandlariga, oilasiga, shogirdlariga bergen inson.

Ayrim odamlar, gazetadan keldim, siz haqingizda yozishim kerak, deya qo'qoz-qalam chiqarsangiz, birdan o'zgarib qoladi. Gapni zamonaosoziga olib, o'sha joyning amaldocharini maqtay boshlaydi. Alaloqibat, ikki varaq quruq raqamlarni yozib olasiz-da, chiroyli bir "tarjimayi hol"ni bosh muharriringizga peshkash qilasiz. Qosimov bobo esa bu borada ham andak hayratimni qo'zg'ab qo'ysi. "Necha shogirdidan fan doktori chiqqani-yu yana nechovi fan nomzodi bo'lgani, qolganlari ham jamiyatga halol xizmat qilib yurgani" haqida gap boshlab qoladimi, deb qo'rqqan edim. Haytovur, bobo oilasidan so'z ochib qoldi.

Nima desangiz deng: o'zbek uchun oiladan qiziqroq mavzu yo'q. Oila – erkakning nomusni, yuzi-da! "O'zining uyida keskan kesishni bilmagan birovgaga umoch uvishni o'rgatibdi", degan gap bor. Ana

shunda xayolimizga g'oyat achchiq, ammo g'irt jaydari savol keldi: "Afsuski, viloyatda nomi chiqqan bo'lsa-da, farzandini yo'lgan solismagan, bolalari ulg'ayib bor nom-u nufuzidan mahrum bo'lgan odam qanday qilib elning bolasiga tarbiya beroldi ekan?". Shunga o'xshash gapni Qosimov bobo ham gapirib qoldi.

– Ancha yillard oldin bir eski tanishim xizmat bilan keldi, – deydi otaxon. – "Boysun" sovxozining ho'o'v pastdagiga Tangimush degan obi yeridan bir gektarining gaplashib bering, dehqonchilik qilib o'zimni tutib olay, deb iltimos qildi. Menku gaplashib bera man, chin kirishsamt olib ham beraman, lekin o'zing-chi, o'zingda uquv bormi, dehqonchilik ham katta ilm, dedim. "E, domla, ekkinning tilini bilaman, ilonga Xudo ko'rib-bilib oyoq bermagan, degandayin, mening ham yerim yo'q", deb katta gapirdi. Mayli, dedim-da, eski tanishimni ergashtirib "Boysun" sovxozining idorasiga, Dashitig'ozga bordim. Direktor ham darrov qabul qildi. Kiribiq muddaomni aytdim. Sherigimni zo'dehqon deb maqtadim. Shunda direktor, boyagi tanishimga uzoq tikilib qoldi. Bir menga qaradi, bir "zo'r dehqon"ga. Tashqariga chiqqach direktor meni chekkaga tortdi. Shunda u saboq bo'ldigan gapni gapirdi: "Domla, yerni-ku beraman: sadqayı suxanizing. Lekin buningizning eplab ketadigan siyog'i yo'q. Yaxshi dehqon bo'lganda buytib yurmasdi. O'zini, ro'zg'orini yolchitmagan odam yuzingizni yerga qaratadi". Direktor bilan nari-beri xayrashib izga qaytdik. Yerni olib berdimmi, yo'qmi – bunisi ahmiyatsiz, lekin umri odamlar orasida o'tib kelayotgan shu dasht farzandi chin haqiqatni aytgan edi. Qarang, kerakli gaplar juda oddiy bo'ladi. Jimjimador gaplarning esa hech kimga keragi yo'q. O'qituvchi o'zining qanday tarbiyachi ekanligini dastlab o'z farzandlarida ko'rsatib berishi kerak...

Gurung davomida boboga "Farzandlarin", shogirdlarning haqida gapirin", deyidigan bo'lsam, surbagimiz turib qolishini qolishadi. Gapni zamonaosoziga olib, o'sha joyning amaldocharini maqtay boshlaydi. Alaloqibat, ikki varaq quruq raqamlarni yozib olasiz-da, chiroyli bir "tarjimayi hol"ni bosh muharriringizga peshkash qilasiz. Qosimov bobo esa bu borada ham andak hayratimni qo'zg'ab qo'ysi. "Necha shogirdidan fan doktori chiqqani-yu yana nechovi fan nomzodi bo'lgani, qolganlari ham jamiyatga halol xizmat qilib yurgani" haqida gap boshlab qoladimi, deb qo'rqqan edim. Haytovur, bobo oilasidan so'z ochib qoldi.

Mana shu xolangiz ikkinimiz o'nta bolalni tarbiyaladik. Yettonni o'qitidik. Yaratganga shukur, O'zbekistonning katta-katta shaharlarida tikib qo'yan "qo'rg'on"larimiz bor. Katta o'g'limiz Toshkentda yashaydi. Harbiy vrach. Unvoni – polkovnik. Ismini Baxtiyor deydi. Ikkinchisi o'g'lim Shahrabsabza. "Temurbeklar maktabi"da ishlaidi. Unvoni balandadi, mayor bo'ldi, ismi Jo'rabeck. Men uni hazillashib gohida "general Jo'rabeck" deb chiqariman. Shunday general o'tgan, birlinchi o'zbek generali! Uchinchimiz Sattor ham elning xizmatida. Angorda ishlaidi, vrach. Chorixon o'g'li sizlarga kasbdosh. O'ktamboy esa ko'p

yl harbiyda ishlab, iste'foga chiqdi. Hozir maktabda CHYTdan dars beradi. Xudoga shukur, qizlarim ham o'zlar bilan o'zlar bo'lib ketishgan. Odam qariganda andak nozik bo'lib qolarkanni, ko'ksim iftixor bilan shukronaga to'lib ketadi, deng. Birdan ko'zimga yig'i qalqib chiqadi. Ollohimga hamd-u sanolar aytaman. Ba'zi kechalari uyugun qochganda o'ylab yotaman: bilsangiz, bir tomchi nopok suv katta quduqni bulg'aydi, uya! Ollohimdan aylanay, bolarimning luqmasini bulg'amadim, qiyalib bo'lsa ham halol non yedirdim. Kattasi maktabdan kelgunicha undan keyingisi kutib turardi: ikkovilarga bitta sumka edi, oyoq kiyim ham oyoqdan oyoqqa o'tardi. Yo o'sha payting sumkalar mustahkaroq bo'lgan, yoki bolalarim ayab ishlashgan. Bir sumkani uch yillab ko'tarishardi. Men bilan onalarining qiyinalib ro'zg'or tebratayotganimizni ko'rib-bilib, o'zlaricha shu yo'l bilan yordam berishmoqchi bo'lishardi go'dakkinalarim. Bolalarim ham hech qachon boy emasligimni, ularga to'kis sharoit yaratib bera olmayotganimni yuzinga solishmagan. O'zimdag'i hamma narsani berayotganimni, bor imkoniyatdan foydalanyotganimni qalban his qilishardi. Shuning uchun bizning mehrimizga go'zal xulqlari, yaxshi o'qishlari bilan javob berishgan. Aksar hollarda ularga qarab: "Hah bolalarim-a, sizlar juda yaxshi kundarda o'qiypasizlar, qorinlar to'q, ustilaring but! Yomon kunning diydori qursin, yomon kunnin bas deguncha ko'rganman... Eh-he! Qay birini ham aytay: ota-ona qo'li boshimni silamagan, boshim toshlarga tegib katta bo'lganman. Mana shu sizlar o'qiyotgan maktabaga oyoqyalang borardim. Qishning izg'irin kundari oyog'im toshga tegib ketsa chayon chaqib olganda dodlab yuborardim", deb tasalli berardim. Lekin orqalaridan yig'lab duolar qildirim. Shunday qanoatlari, aqli, harakatchan, odbli farzandlarni bergan Xudoyimga shukronalar aytardim.

Boboning gurunglariga qulqoq solib o'tirarkaman, ko'rpacha ostiga suribiga no'q'ilgan kitobga ko'z qirrimi soldim. Shoshilib no'q'ilgan xatcho'piga qaraganda, hozirgina yopilgan, shu barobarida adolqab ham qolgan. So'ng sarishita xonaning to'ridagi javonga bir ko'z siltab oldim: qator kitoblar... Tartib bilan terib yo'ilmagan, tez-tez safi siyraklashib turgani, bira ketsa ikkinchisi joyini to'ldirgani shundoqqa bilinib turidi. Kitob bu uuda javondagi bezak emas, o'qish uchun turganini har qanday odam tez fahm laydi. Isbot – Qosimov boboning fasohatli so'zlar, uyidagi g'oyat samimi, har qanday keraksiz lutflandan xoli muhit.

Kasbimning o'zimga yoqmaydigan bir jihatib bor: tez-tez savol berib turishni yaxshi ko'raman. Ya'niki, suhbat o'zanini aynan jurnalist boshqarib turishi kerak, degan aqida kallamiza o'tirib qolgan. Olisdagi farzandlari haqida ifixorgia qorilip gapirayotgan, duolar bilan alqayotgan saodatmand otaga "Hozirgi o'qitish usullari haqida nimalar deya olasiz?" degan savollar berishdan o'zimni tiydim. Otaxon esa suhbatni o'zi ishlagan davrlarga burdi:

– Bolalarimning hammasi maktabda faqat "besh"ga o'qishardi! Shuning uchun men qo'rquyay boshqa o'quvchilarga, ota-onalarga o'ktam gapira olardim. Bir hisobidan shunday yo'l tutishga haqqim bor deb hisoblardim, negaki, shu mabtag uymiday bo'lib qolgan edi-da! Rosa qirq besh yil qishloqda 4-maktabga shu ko'chadan borib-qayta verganman. Tarixdan dars

o'tardim. Bolalarda ona yurtga muhabbat uyg'otishda tarix fani ham adapbiyot yoki ona tilidan qolishmaydi. Orada bir yil xalq ta'limi bo'limidagilar topshirig'i bilan bu yerdan qirg'chaqim keladigan Xo'jabulg' on qishlog'iqa borib ham ishlab keldim. U yog'i "Chinor", buyog'i "Ariqusti" mahallasidan o'tiz bola menin simfimda o'qirdi. Haftasiga bir kun uyma-uy kirib-chiqaman. Ota-onalar bilan suhbat quraman. Farzandining kamchiligini aytaman, yaxshi tomonlarini gapiraman. Dars tayyorlash uchun sharoit bor-yo'qligi bilan qiziqaman. Ba'zilariga achchiq-achchiq gapirin paytalarim ham bo'lgan. Mana, hozir Prezidentimiz faqat xalq bilan muloq qil, deyapti. Bu gap o'qituvchilarga ham tegishli: o'quvchilar bilan, ota-onalar bilan qizg'in, jonli muloqot qilmas ekan, ta'limi silish bo'lmaydi. To'g'ri, hozir ham "Ota-onalar bilan suhbat" jurnali bor. Lekin qog'oz taxlab hujjat qilish bilan maqsadga erishib bo'lmaydi.

Siz shogirdlarim haqida so'rsiz, balki. Shu ikki mahalladan uchirma bo'lgan barcha insonlarning kamolotida maktab ja'moasingin hissasi bor, jumladan mening ham. Qishloqdashlarimming o'zimdan bir yosh kichigini shogirdi, bir yosh kattasini ustoz hisoblayman. Nega aynan inson yoshiga nisbat berganim bilan qiziqayotgandirisz-a? Nima qilay "boysunchilik", bu yerdagi taomil shunday: yoshi kattaroq odam qaysidir jihatdan ustoz sanaladi. Aslida ham shunday qarash to'g'ri. Men Termiz davlat pedagogika institutida sirdat o'qigan davrlarda Mansur Oltinov, Abdubajbor Omonturiyev degan yosh olimlar bor edi. Ikkovi ham o'zini ilmga bag'ishlagan, qadimiy manbalarni o'rganishdan zavq oladigan yigitlar edi. Keyinchalik bu ikki munosib inson ilm olamida havas qilarli shuhratga ega bo'ldilar. Men e'tibor qilgan narsa shuki, tugal besh yillik tahsil davomida bu ikki olimni biror marta betartib qiyofada ko'rmagan ekanman. Doim sarishta kiyinib yurishardi, yuzlaridan mammunlik va ichki ishonch arimasdi. Shuning uchun tabalabarning hammasi ularga astoyid havas qilishardi. O'ylab qarasam, ana shu jihatdan Mansur aka bilan Abdubajbor aka menga ber umrik ustozliz qilishgan ekan.

Chuwoqli kunlarda ko'chaga chiqib o'tiraman. Maktabdan qaytayotgan o'quvchilarni ko'rib, muallimlik davrini esimga manbalarni o'rganishdan zavq oladigan yigitlar edi. Keyinchalik bu ikki munosib inson ilm olamida havas qilarli shuhratga ega bo'ldilar. Men e'tibor qilgan narsa shuki, tugal besh yillik tahsil davomida bu ikki olimni biror marta betartib qiyofada ko'rmagan ekanman. Doim sarishta kiyinib yurishardi, yuzlaridan mammunlik va ichki ishonch arimasdi. Shuning uchun tabalabarning hammasi ularga astoyid havas qilishardi. O'ylab qarasam, ana shu jihatdan Mansur aka bilan Abdubajbor aka menga ber umrik ustozliz qilishgan ekan.

...Tog'dan etni junjiktruvchi shabada keldi chog'i, uy oldidagi azim daraxting yalang'och shoxlari sollana boshladi. Qishning kuni bir tutam. "Suhbatboqi qilaylik", degan mazmunda qaradim Qosimov boboga. U kishi bilan xayrlashar ekanman, otaxonning Termizday joydan kelgan mehnagini qo'yib yuborishga qizg'anayotganini sezdim. Bu ham "boysunchilik". Katta ko'chaga chiqqach, osmonlarga yaxzin Bog'boloning sodda va daryodil, orif va donishmand insoni bilan gurunglashganidan xursand edim.

Isroi ShOMIROV

"Ma'rifat" repetitor

Majburiy fanlar asosida tuzilgan, mavzulashtirilgan testlarning 21-variانتи

ONA TILI

(7-sinf darsligi doirasidagi testlar)

1. *Uncha-muncha olmoshining tuzilishiga ko'ra turi qaysi qatorda to'g'ri izohlangan?*

- A) takroriy olmosh B) juft olmosh
C) qo'shma olmosh D) juft olmosh

2. *Qaysi gapda olmosh gap o'rnila kelgan?*

A) Karim gullarni uza boshladi. Bu bog'bonga yoq-madi.

B) Amir Temur markazlashgan davlatga asos soldi. U Samarqandni poytaxtga aylantirgan.

C) Ilm iymonni ham yorituvchi nur. Bu yodingizdan chiqmasin.

D) Gullarning ko'pi pushti rangda. Shu rang menga ham yoqadi.

3. *Ko'makchi qaysi birlikdan keyin kelmaydi?*

- A) ot B) harakat nomi
C) ravishdosh D) sifatdosh

4. *"Matnning mazmuniy yaxlitligini ta'minlashda ayrim ... yoki ... asosiy o'rinni egallaydi. Matnning mohiyatini belgilashda ular tayanch birlikkilar hisoblanadi. Matn mazmunini qayta bayon qilishda shu birlikkilar asos bo'ladi".*

Nazariy matndagi nuqtalar o'rniga mos atamalarini qo'ying.

- A) gaplar/urg'u B) so'zlar/gaplar
C) tovushlar/qo'shimchalar D) urg'u/ohang

5. *Qaysi gapda o'zlik olmoshi shaxsga ishora qilgan?*

A) O'zi bukur, Tishi o'tkir, Dehqonga o'rtoq.
B) Baxtsizliging sirini boshqalardan emas, o'zing-dan izla.

C) O'zi dumaloq, Qor kabi oq.

D) Ko'rmagaysiz o'zini, Eshitasiz so'zini.

6. *Javoblarni o'zaro to'g'ri moslashtiring.*

1) bu, mana shu, manavi, anovi; 2) hamma, har qanday, har qaysi, ba'zi; 3) kimdir, nimadir, allakim; 4) hech kim, hech narsa, hech qaysi; 5) men, sen, u, biz, siz (sizlar), ular; 6) kim? nima? qayer?; 7) o'z.

a) gumon olmoshlari; b) bo'lishsizlik olmoshlari; d) so'roq olmoshlari; e) ko'rsatish olmoshlari; f) kishilik olmoshlari; g) o'zlik olmoshi; h) belgilash olmoshlari.

A) 1-h, 2-e, 3-a, 4-b, 5-f, 6-g, 7-d

B) 1-e, 2-h, 3-h, 4-b, 5-f, 6-a, 7-g

C) 1-h, 2-e, 3-a, 4-b, 5-f, 6-d, 7-g

D) 1-e, 2-h, 3-a, 4-b, 5-f, 6-d, 7-g

7. *Manman so'zi qaysi qatorda tog'ri izohlangan?*

- A) yasama sifat B) takroriy olmosh
C) ibora D) shaxs oti

8. -siz shakli qaysi qatorda bog'lama vazifasida kelgan?

A) Siz bizning yo'lboshchimiz.

B) Do'stsiz boshim, tuzsiz oshim.

C) Onajon, mening eng mehribon kishimsiz.

D) Bu to'dadigilarning ko'pi aqlsiz.

9. *"Maktab sari" birikuvida urg'u qaysi o'ringa qo'yildi?*

- A) sari so'zining oxirgi bo'g'iniga
B) maktab so'zining birinchi bo'g'iniga
C) sari so'zining birinchi bo'g'iniga
D) maktab so'zining oxirgi bo'g'iniga

10. *Qaysi javobda ergashtiruvchi bo'glovchi qo'llangan?*

A) Avvalo shuki, kovush tikishga na charm bor, na sirach, na mix, na lok.

B) Hunar o'rgan, chunki hunarda ko'p sir.

C) O'ktam tolga suyanib, dam cholga, dam tegirmonga qarab indamay turaverdi.

D) Hammasini tinglardim, ammo O'xshashini topmasdim aslo.

11. a) *gars-gurs;* b) *taq-tuq*.

Ushbu taqlid so'zlarning tuzilishiga ko'ra turi qaysi javobda to'g'ri izohlangan?

- A) a-takror; b-juft B) ikkalasi ham takror
C) a-juft; b-takror D) ikkalasi ham juft
12. *Albatta, shaksiz modal so'zlarining ma'no turli qaysi qatorda tog'ri izohlangan?*

- A) fikrning tartibi B) tasdiq
C) ishonch D) fikrning dalillanishi

13. "So'z yoki gaplarga so'roq, ta'kid, ayirish-chegaralash, guman, o'xshatish, inkor kabi ma'nolarni yuklovchi so'z va qo'shimchalar".

Ushbu ta'rifga mos atama qaysi qatorda to'g'ri berilgan?

- A) bog'lovchi B) ko'makchi
C) olmosh D) yuklama

14. *Quyidagi so'zlarining bugungi kundagi muqobilini topib o'zarो to'g'ri moslashtiring.*

- 1) muarrix; 2) handasa; 3) shuarо; 4) mutarjim.
a) tarjimon; b) shoirlar; d) geometriya; e) tarixchi.

- A) 1-a, 2-d, 3-b, 4-e B) 1-e, 2-d, 3-b, 4-a
C) 1-b, 2-d, 3-a, 4-e D) 1-e, 2-b, 3-d, 4-a

15. *Idish nusqonlidir, gar bo'lsa qadoq.*

Aslo ayb bo'lmas qo'ldagi qadoq.

Ilma bag'ishlab o'tkaz har omni,

Aqling botmon bo'lsin, vazning bir qadoq. (A. Shukurov)

Ushbu she'riy parchadagi ostiga chizilgan so'zlar qaysi javobda to'g'ri izohlangan?

- A) bir-biriga nisbatan shakldosh
B) bir-biriga nisbatan ko'p ma'noli
C) 1-qatordagi so'z 2-4-qatordagi so'zga nisbatan ko'p ma'noli
D) bir so'zning turli ma'nolari

UYGA VAZIFA: Keyingi sonda 8-sinf "Ona tili" darsligidagi 3-38-betlarda berilgan mavzular asosida tuzilgan test topshiriqlari beriladi. Mazkur mavzularni qunt bilan o'qing va bilimingizni mustahkamlang.

G'anisher HAQNAZAROV,
Xatirchi tumanidagi 1-maktab o'qituvchisi

MATEMATIKA

("Takrorlash testlari")
6-8-sinf materiallari bo'yicha


16. $\frac{|4-4| \cdot |3-6|-8}{|4-|3-8|-7|}$ ni hisoblang.

- A) 2 B) 1 C) 3 D) 4 E) 2,5

17. $m = 0,22(23)$, $n = 0,2(223)$, $l = 0,222(3)$ sonlarni o'sish tartibida yozing.

- A) $n < m < l$ B) $l < m < n$
C) $m < n < l$ D) $m < l < n$

18. Quyidagi sxemada x o'rniga qanday son qo'yish mumkin?



- A) 12 B) 6 C) 8 D) 10

19. $\left(-\left(-5\frac{1}{2}\right)\right)$ soniga qarama-qarshi sonni toping.

- A) 5,5 B) $-5\frac{1}{2}$ C) $\frac{2}{11}$ D) $-\frac{2}{11}$

20. Talabaning stipendiysi 400000 so'm. Agar uning stipendiysi 25% ortsa, u qancha stipendiya oladi?

- A) 425000 so'm B) 500000 so'm
C) 600000 so'm D) 700000 so'm

21. Agar 10 dirham pul 6 oyda 3 dirham foya keltirsa, 25 dirham pul 4 oyda necha dirham foya keltiradi?

- A) 9 B) 15 C) 5 D) 10


22. Ekilgan 500 ta urug'dan 10 % unib chiqmad. Qancha urug' unib chiqqan?

- A) 430 B) 460 C) 450 D) 470

23. Matematika fani o'qituvchisining oyligi 3000000 so'm, agar shu oylikdan 12% daromad solig'i olinsa o'qituvchiga qancha oylik qoladi?

- A) 2660000 B) 2880000 C) 2640000 D) 2600000

24. Quyida berilgan shakning necha foizi bo'yalmagan?



- A) 50% B) 40% C) 30% D) 45%

25. 2 soat 10 minut 30 sekund necha sekund?

- A) 7830 sekund B) 8730 sekund

- C) 8500 sekund D) 7600 sekund

26. x ning qanday natural qiymatlarida quyidagi qo'sh tengsizlik o'rini bo'ladi: $97,7 < x < 101?$

- A) x=99, 100, 101 B) x=98, 99, 100, 101

- C) x=98, 99, 100 D) x=99, 100

27. Hisoblang: $2021 + \left(1 - \frac{1}{13}\right) \left(1 - \frac{2}{13}\right) \left(1 - \frac{3}{13}\right) \dots \left(1 - \frac{36}{13}\right)$

- A) 2021 B) 2 C) $16\frac{1}{13}$ D) 0

28. $[-4,7] + [4,6]$ ning qiyati nimaga teng? ([a] - a ning butun qismi)

- A) 0 B) 1 C) -1 D) 2

29. a va b raqamlar va A natural son uchun $\overline{ab} = A$ bo'lsa, $a\overline{b}$ ni A orqali ifodalang.

- A) A + 100 B) A + 40

- C) A + 400 D) A + 4

30. 456...79808182 necha xonali son?

- A) 81 B) 153

- C) 90 D) 152

UYGA VAZIFA: Keyingi sonda "Hisoblash qoidalari (amallar bajarish, arifmetik kvadrat ildiz, miqdorning taqrifiy qiyati, sonlarni yaxlitlash, absolut va nisbiy xatolik, sonning moduli, standart shakli)" mavzusiga oid testlar beriladi, bunda testlar 6-8-sinf materiallari bo'yicha tuziladi.

Hamza XUDOYBERDIYEV,
G'ijduvon tumanidagi
32-maktabning matematika
fani o'qituvchisi

O'ZBEKISTON TARIXI

(9-sinf "O'zbekiston tarixi")

31. Qaysi Xiva xoni davrida "qoraqalpoq ulusi" shakkantirildi?

- A) Olloqulixon

- B) Muhammad Rahimxon I

- C) Asfandyorxon

- D) Muhammad Aminxon

32. Quyidagi qaysi javobda jadidchilikning asiy g'oya va maqsadlari berilgan?

1. Turkistonni o'rta asrning qurilishi, feodal qoloqlik, xurofatlardan ozod qilish.

2. "Usuli qadim"ni inkor etgan holda o'lkani, xalqni, millatni taraqqiyot yo'liga olib chiqish.

3. Milliy davlat bunyod etish.

4. Konstitutsion, parlament idora usulidagi ozod va farovon jamiaty qurish.

“Ma'rifat” repetitori

Majburiy fanlar asosida tuzilgan, mavzulashtirilgan testlarning 21-varianti

5. Turkiy tillarga davlat tili maqomini berish.
 6. Milliy pul birligi va milliy qo'shin tuzish.
 A) 1, 2, 3, 4 B) 1, 2, 3, 4, 5, 6
 C) 1, 2, 3, 4, 5 D) 1, 3, 4, 5, 6

33. Turkiston Muxtoriyatining markazi qaysi shahar hisoblangan?

- A) Toshkent B) Buxoro
 C) Samarqand D) Qo'shon

34. Mirkomil Mirmo'minboyev, bu – ...

- A) andijonlik taraqqiyatparvar sarmoyador bo'lib, yoshlarning chet ellarda o'qishi uchun mablag' ajratgan
 B) samarcandlik ma'rifatparvar bo'lib, "Tarbiyayi atfol" jamiyatining a'zosi bo'lgan
 C) toshkentlik jadid bo'lib, huquqshunoslik sohasi bo'yicha Rossiyada ta'lif olib qaytgani edi
 D) toshkentlik ma'rifatparvar bo'lib, Beshyog'ochda birinchi jadid maktabini ochgan edi

35. 1911-yilda O'rta Osiyoda yangi usuldagi maktablar soni ... ga, undagi o'quvchilarning soni ... ga yetdi.

- A) 63 ta/4106 ta B) 24 ta/1740 ta
 C) 83 ta/2430 ta

36. XX asr boshlariga kelib qoraqalpoq demokratik an'analarining yangi avlod vakillarini aniqlang.

- 1) Jiyen Jirov; 2) Qulimbet; 3) Umar;
 4) Sariboy, 5) Saidazimboy; 6) Bekmurot;
 7) Sodiq; 8) Qulmurot.
 A) 1, 2, 4, 7 B) 2, 3, 4, 7, 8
 C) 2, 3, 5, 6, 8 D) 1, 3, 4, 5, 6, 8

37. Ismoil G'aspirali nechanchi yilda Toshkent, Samarqand va Buxoroga tashrif buyuradi?

- A) 1884-yil B) 1888-yil C) 1893-yil
 D) 1910-yil

38. Xiva xonligida bosh vazir Islomxo'ja boshchiligidagi jadidchilik oqimining maqsadi nima bo'lgan?

- A) yangi usul maktablarini tashkil qilish, yoshlarni chet ellarga o'qishga yuborish
 B) xon hokimiyatini ag'darib, demokratik tuzumni tashkil etish
 C) yangilik va islohotlarni xushlamaydigan qadimchilar oqimini tag-tomiri bilan yo'qotish
 D) xon hokimiyatini saqlab qolgan holda islohotlar o'tkazish

39. Turkiston jadidlari, ziyolilarning fikricha, xalqni ozodlikka eltuvchi yo'l nima bo'lgan?

- A) xon hokimiyat, monarxiyani ag'darish
 B) hukmdorlarning hokimiyatni cheklanishi, xalqning boshqaruvda ishtirok etishi
 C) barcha tabaqalarning bir paytda, bir joyda birlashib, mustamlakachilarga zarba berishi
 D) aholining bilimini, ma'rifatini uyg'otish

40. "O'rta Osioyi jadidlarning otasi" deya nom olgan ma'rifatparvari belgilang.

- A) Munavvarqori
 B) I. G'aspirali
 C) M. Behbudiy
 D) A. Avloniy

41. "Tarbiyayi atfol" jamiyatni qaysi shaharda tashkil etilgan?

- A) Toshkent
 B) Andijon
 C) Buxoro
 D) Samarqand

42. Jadid ma'rifatparvarlaridan qaysi biri imom-xatib, qozi, keyin muftiy lavozimlarida faoliyat ko'rsatgan?

- A) Abdulla Avloniy B) Fitrat C) Mahmudxo'ja Behbudiy
 D) Asadullaxo'ja o'g'li Ubaydullaxo'ja

43. Jadidlar xotin-qizlar ta'limi masalasida qanday fikrda bo'lgan?

- 1) alohida ayollar maktabini tashkil qilish;
 2) islom istagan ayolning ma'rifatli bo'lishiga o'sqinlik qilmaydi, deb hisoblagan;
 3) jadidlar o'g'il va qiz bolalarni birga o'qitishni yoqladilar;
 4) jadidlar qizlar uchun faqat diniy bilimlar o'rgatishini yoqlab chiqqdilar.
 A) 1, 4 B) 2, 3 C) 1, 2, 3 D) 1, 3, 4

44. Bir yilda tavallud topgan jadid allomalarini aniqlang.

- A) Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulhamid Cho'lpion
 B) Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Avloniy
 C) Munavvarqori, Abdulla Avloniy
 D) Boboouxon Salimov, Polvonniyoz Hoji Yusupov

45. 1858-1859-yillarda Xiva xoniga qarshi qoraqalpoq urug'lari qo'zg'olon ko'targan bo'lib, bu qo'zg'olon kim tomonidan bostirilgan edi?

- A) turkman jangovar kuchlari boshlig'i Otamurodxon
 B) qozoq urug'i boshliqlaridan biri Zarliq
 C) Xiva harbiylaridan biri Muhammadniyoz
 D) jongur qabilasi sardori Rizoqul

Jalol BOLTAYEV,

Urganch davlat universiteti talabasi, repetitor

21-VARIANT TESTLARINING JAVOBHLARI

ONA TILI

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15
A	C	C	B	B	D	A	C	D	B	B	C	D	B	A

MATEMATIKA

16	17	18	19	20	21	22	23	24	25	26	27	28	29	30
A	A	B	A	B	C	C	C	B	A	C	A	C	B	D

O'ZBEKISTON TARIXI

31	32	33	34	35	36	37	38	39	40	41	42	43	44	45
B	B	D	A	A	B	C	D	D	C	C	C	B	C	A

Tajriba

Kitob o'qishgami yo'qishga?

Olovning bo'yusundirilishi, nonning ixtiro qilinishi, kamon va g'ildirakning yaratilishi insoniyat rivojlanishida o'ta muhim rol o'ynagan. Kitobning o'rnı esa ulardan kam emas. Kitob o'qigan kishining dunyoqarashi va ilmi yana qancha yangiliklar yaratishga qodir. Men o'quvchilarimni ko'proq badiiy asar mutolaa qilishga undayman.

Ba'zida qiziqroq asarlardan parchalarni o'zim o'qib beraman, toki o'quvchida motivatsiya uyg'onsin. Kitob har bir o'quvchiga vatanparvarlikni, oilani sevishni o'rgatadi. Masalan, O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" asarida ona-bola suhbat jarayonida ona o'z o'g'liga inson, avvalo, o'z yaqnirlari, aka-ukalarini, o'zi suv ichayotgan ariqni, yashayotgan shahri — Toshkentni, ayniqsa, Do'mbirbobodni yaxshi ko'rishi kerakligini uqtiradi. Bu sobiq tuzum vaqtida adibning xalqqa murojaati, asl vatan uzoqda emas, yonimizda, u bizning uyimiz, bosib turgan yerimiz, mahallamiz ekanligini onalarning ertaklari, rivoyatlari orqali singdirib borilganligini ko'rsatish bo'lgan. "O'tkan kunlar" asarida bayon etilganidek, Marg'ilonidagi Otabek kelib joylashgan karvonsaroy ta'rifida ham vatanparvarlik bor: "...darbozasi sharqi-janubiyga qaratib qurilgan bu dong'dor saroyni Toshkand, Samarqand va Buxoro savdogarlari egallaganlar, saroydagi bir-ikki hujrani istisno qilish bilan boshqalari musofirlar ilo to'la". Asarni o'qish bilan birga o'zbek millatining imorat qurishagi me'moriy ushlublari ko'rsatilgani, uylar ko'p hollarda quyosh harakatlanishini hisobga olgan holda sharq va janubga qaratib qurilgani e'tirof etilganini uqish kerak. Mazmun shuki, Otabek davlat

tepasida xalq manfaatini ko'zlaydigan odamlar turishi ni orzu qiladi. Bu adibning uyqudagi millatni istiqolga, ozodlikka chaqirishi, o'z yurtini rivojlangan davlatlar qatorida ko'rish orzusi edi.

Darslarda o'quvchilarini kitoba qiziqirish uchun turli metodlardan hamida rag'bat usullaridan foydalananman. Olaylik, mashg'ulot davomida "Do'stlik" o'yinini tashkil etib, o'g'il-qizlarni ma'naviy birlashirishga urinaman. O'yinda o'quvchilar erkin muloqot shaklida o'tirishadi. Ulardan biri yaqinda o'qigan asaridan parcha aytadi. Bu asar nomini to'g'ri topgan o'quvchi savol bergen sindoshining yoniga borib o'tiradi. Navbat keyingi o'quvchiga beriladi. Shu tarzda ular just bo'lib, o'zlarini o'qigan kitob bo'yicha bahslashishadi. Rag'bat uchun ularga sind kutubxonasidan kitob sovg'a qilinadi. Shu tarqa do'stlik g'alaba qozonuvchi musobaqada o'g'il-qizlar mutolaa zavqini tuyishadi.

Kitob o'qish, kitobxonlik, kitob targ'iboti ko'pchilik uchun qandaydir oddiy tadbir o'tkazishga aylanib qolayotgan hozirgi davrda o'quvchilar kitobni tom ma'noda sevib qolishi uchun o'qituvchi ko'magi zarur.

Zarifa ABDURAHMONOVA,
 Namangan shahridagi
 33-maktab o'qituvchisi

E'zoz

Olovqalb olim

Pedagogik ta'limga rivojiga munosib hissa qo'shgan ustoz olimlar faoliyati haqidagi ma'lumotlarni, afsuski, ko'pchilik yaxshi bilmaydi. Ularga ta'limga tarbiya berishda esa ilmiy pedagogik tamaddunga tayanildi.

Forishning Garasha qishlog'dan yetishib chiqqan pedagogika fanlari doktori, professor O'tkir Tolipov ham ana shu ilmiy pedagogik tamaddunning munosib vakillaridan. O'sha tuproqda tug'ilgan iste'dodli ijodkor, rahmatli Sa'dulla Hakim u haqida "O'tkir — ko'nligi to'g'ri, ochiq tabiatli yigit. Ba'zilar uning bu fe'lini olyi ta'limni Yevdeva olgанили билан izohlashadi, ya'ni kim yevropacha tabiatni o'sha yerda orttirgan. Bo'lsa bordir. Menimcha, to'g'riso'zlik, ba'zan mulohaza qilib ham o'tirmay, ko'nliga borini aytilib qo'ya qolish uning qonida bor. Bobosidan, otasidan o'tgan...", deb yozgan edi. Asli pedagogik mahorat va ilmga fidoyilik ham unga ota-bobolaridan meros fazilat.

Olimning muhim xususiyatlaridan biri uning tinim bilmay o'z ustida ishlashti, yangilikka o'chligi, izlanishi, ilm yo'lida qalbining otash kabi yonishi va boshqalarni ham yondira bilishidir.

Bir donishmanddan so'rashibdi:

— Tabarruk yoshga kirgan ko'rinasiz. Necha yoshdasiz?

— Necha yoshga kiranjamim mendan ko'ra yor-u do'stlarim, qarindosh, qo'shnilar va

shogirdlarim yaxshiroq bilishadi, — debdi u.

— Nima uchun?

— Chunki ularga manfaatim tegmay o'tgan kunni umrim sanog'iqa kiritma olmayman, — deb javob beribdi donishmand.

Haqiqatan, inson umri yillar bilan emas, el-yurt manfaati yo'lida bajarilgan ishlar bilan o'chanadi. Albatta, ilm-ma'rifat va ziyo taratish yo'lida yillarning salmog'i katta, erishilgan natijalar ham faxrlansa arzigulik...

O'tkir Tolipov "pedagogik texnologiyalar" ilmiy maktabi asoschisi, mehnat ta'limi, ilg'or ta'limga texnologiyalari yo'nalişlariga munosib hissa qo'shgan inson, O'zbekiston pedagogika fanini pedagogik atamalar lug'ati, pedagogik texnologiyalar bilan boyitgan zahmatkash olim, MDH mamlakatlarning Moskva, Sankt-Peterburg, Qozon, Kiyev, Minsk, Astana, Almati kabi shaharlarda mutazam o'tkazilgan an'anaviy xalqaro pedagogik anjumanlar tashkiliy qo'mitasi a'zosini, O'zbekiston OAK e'tirof etgan "Pedagogika" jurnali bosh muharrir o'rinsbosaridir. Olimning pedagogika fani dolzorb muammolariga bag'ishlangan 300 ga yaqin ilmiy maqolalaridan 40 dan or-



tig'i xorijiy mamlakatlarning nufuzli ilmiy jurnallarida chop etilgan.

O'Tolipov 30 yoshida so'bq ittifoq Pedagogika fanlar akademiyasi huzurida jahonga taniqli olim, akademik V.P.Bespalov ilmiy rahbarligida didaktikaning o'tkir muammolariga bag'ishlangan nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyat bilan aspirantura muddatidan oldin himoya qilgan umidi va salohiyatlari yoshlardan edi. Ustozlar ishonchini oqlab, oradan ko'p o'tmay, fan doktori ilmiy daramasiga erishdi. "Olyi pedagogik ta'limga tizimida umummehnat va kasbiy ko'nikma va malakalarini rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini yolladi. Olovqalb olim ta'limga eng qaynoq nuqtalarida jo'shqin ilmiy-pedagogik faoliyat olib bordi. Jizzax davlat pedagogika instituti, O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetidek nufuzli ta'limga tarbiya va ilm maskanlarida pedagog kadrlar tayyorlash, yosh olim-

larni yetishtirish kabi ishlarga rahbarlik qildi, ilmiy-ijodiy ishlarga bosh-qosh bo'ldi. Yuzlab shogirdlarning mehribon va talabachalar ustoziga aylandi.

Ustozlik mas'uliyati og'ir... U shogirdlariga to'g'ri yo'lyo'riq ko'rsatishi, bo'lajak kasbining sirlarini o'rganishga kirishgan yosh qorako'zlarga zarur kasbiy bilimlarni singdirishi, salohiyatlari yoshlarni ilmiy-pedagogik yo'naltirish, yozgan ishlarini o'qib, zarur maslahatlar berishi, kerak bo'lsa, birlashtib tajriba-sinov ishlarida ishtirok etishi, ilmiy gipoteza va yaratilgan ilmiy yangilikning qanchalik to'g'ri ekaniga ishonch hosil qilganidagina shogirdiga oq fotiha berishi zarur. O'tkir aka ana shunday ustoz bo'la oldi. 2006-yili professor ilmiy unvoniga sazovor bo'ldi. Bugungi kunda O'zbekiston ta'limga tarbiyasini rivojlantirishga munosib hissa qo'shib kelayotgan taniqli pedagog olim va jamoat arboblari: Sh.Sharipov, K.O'rolov, I.Islomov, P.Xolmatovlar O'tkir Tolipov shogirdlari hisoblanadi.

Ustoz oxirgi yillarda Nizo-

miy nomidagi TDPU "Texnologik ta'limga" kafedrasini hamda "Pedagogika" jurnalini boshqarib kelmoqda. Qolaversa, Olyi attestatsiya komissiyasining doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalari himoya kengashida rasmiy va norasmiy opponent sifatida faol ish olib bormoqda.

Pedagoglarning aksariyati O'zbekiston ta'limga tarbiya amaliyotiga yangilik sifatida kirib kelgan ta'limga texnologiyalarini O'tkir Tolipovning "Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot", "Pedagogik texnologiyalarining tabtiqiy asoslari" (M.Usimboyeva bilan hammulliflikda), "Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat" risolalaridan o'qib-o'rganib, tajriba ottirib kelmoqda. Bunday salohiyatlari shogirdlar yetishtirgan, qadri baland kitoblar yaratgan olimlarning ham el ichida hummat-izzati yuksak bo'lishi tabiiy. O'tkir Tolipov Xalq ta'limi a'lochisi va 2007-yildan Xalqaro pedagogik ta'limga fanlar akademiyasining akademigidek yuksak nomga erishdi.

Professor hammullifligida yaratilgan qator o'quv adabiyotlari respublika ko'rnik-tanlovlarida faxrli o'rnlarga sazovor bo'ldi, jumladan, 2000-yilda "Issiqlik texnikasi" darsligi "Yilning eng yaxshi o'quv adabiyoti" respublika tanlovida faxrli o'rinni egalladi, "Mehnat ta'limi" darsligi ham mazkur tanlov sovrindori bo'ldi.

Jonkuyar murabbiy, mehribon va kamtarin ustoz, pedagogika fanlari doktori, professor O'tkir Tolipovni qutlug' 60 yoshi bilan muborakbod etamiz.

Qarshixon XOLXO'JA o'g'il, tibbyiot fanlari nomzodi, dotsent

Oramizdag'i yoshlar

Ustozlik va yaxshilik

O'quv jarayonlari oxirlashib qolgan chog'lar serg'ayrat muallima hafta so'ngida o'quvchilarga tabiat darsidan ekskursiya borligi va kelgusi darsda sayohat uyushtirish rejasini aytdi. O'quvchilar juda quvonishdi. Sayohat kuni yigit-qizlar bir-biri bilan kelishib, turli yeguliklar, shirinliklar-uchimliklar bilan to'ldirilgan sumkalar osib yo'lga otlanishdi. O'quvchilar orasida kimdir yo'qligini darrov payqagan muallima bolalardan so'radi.

Har doimgiday bijildoq Nafisa javob berdi:

— Malika hech narsa olib kelmagani uchun sinfdas qoldi.

Mehridaryo ustoz gap nimadaligini tushundi. Axir Malikaning onasi yo'q, o'gay ona qo'lida qolgan, boyaqish. U bolalarga darrov kelaman deya, tinchlik saqlashini tayinlab, maktab yonidagi do'konga ketdi. Har xil yeguliklar va suv xarid qildi, xaltachaga solib to'g'ri sinfga bordi. Malika yolg'iz, ko'zlar qizargan, boshlari egik holda o'tirardi.

— Malika, qizim, senga ayttishni unu-

tibman, dadang mana bularni tashlab ketgandi, — deya xaltachani unga tutqazdi.

— Rostan ham dadam keldimi? Nahotki? — deya yig'lab yubordi. Muallima uni bag'riga bosib cho'ntagidan oppoq ro'molchasini olib uning yoshlarini artdi va qo'lidan tutib bolalar safiga qo'shdi. Malika juda baxtiyor edi.

Yillar o'tib, Xadicha opa nafaqaga chiqdi. Doim shogirdlarining yutug'idan quvonib, tashvishlaridan kuyunib yashaydi. O'qituvchi uchun qadralash, e'zozlash, hurmatlash kabi hislarni tuyub yashash katta baxt, menimcha. Har

bayramda Xadicha opaning uylari to'laadi, qalbi baxtdan quvonadi. Axir necha yillar o'tsada shogirdlari uni yo'qlab tabriklashga oshiqadi.

Har galgidek o'sha kuni ham Xadicha opani yo'qlovchilar ko'p bo'ldi. Eshik taqillagach, "Qaysi qadrondan kelgan bo'lsa" degan xayol bilan eshikni ochdi. Ostonada kiyimi o'ziga yarashgan, salobatli ayol turardi. Qo'lida bir quchoq gul bilan jilmayib, "men keldim, ustoz" dedi.

Bir paytlar Xadicha opa uning bola ko'nglini ko'targan, onaday mehribonlik qilgan kichik Malika edi. Endi u ustozni kabi yaxshilik va ziyo ulashuvchi ziyolardan.

Ustozini qattiq bag'riga bosgancha, "Onajon, bayramingiz bilan tabriklayman" dedi. Uning ko'zlariga qarab "O'sha kuni dadam kelmagan edi, buni bilardim" degisi kelar, qalbidagi borini to'kib solgisi kelardi, ammo o'pkasi to'lib yig'lashdan beri bo'lib ustozining bag'riga yuzlarini yashirardi. Shogirdidan "ona" degan

so'zni eshitib ko'nligi tog'day ko'tarildi, yuzlarini shukronalik ko'zyoshlari yuvdi. Malika cho'ntagidan oppoq ro'molchasi ni chiqarib, nuroniy chehrani mehr bilan artib qo'ydi.

Yaxshilik eng go'zal fazilatlardan biri. Inson umri davomida qilgan ezgu amallari, xayrli ishlari va yaxshiliklari bilan yodga olinadi. Maktab davrlarini ko'pchiligidagi yaxshi eslaysiz. O'qituvchimizning mehr bilan bergan saboqlari, boshimizni silab ezzulgulka chorlagani, va albatta, qilgan yaxshiliklarini hech ham unutmaymiz. Hikoyadagi insonlar mening hayotimga ham aloqador. Chunki o'sha jonkuyar, yaxshilikparvar, munis muallimaning qiziman. Va bundan cheksiz quvonaman. Ziyolilar oиласида туг'илганин, касби faoliyatim davomida mana shunday maslahatgo'yim borligidan g'ururlanaman. Onam kelgusi hayotim va faoliyatimda doimo ibrat namunasi bo'lib qolaveradi. Bundan kuch olib faqat va faqat yaxshiliklari sari intilaman. Onam kabi e'tibor-u e'tirofga loyiq bo'la olamanmi, deb o'layyaman.

Yulduz XUDYOYOROVA,
Xatirchi tumanidagi
14-maktabning
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Rag'batning eng a'losi

O'quvchilarimdan biri juda yaxshi o'qyidi-yu, yozuvni xunuk edi. Bir kuni "Ziyodaxon, sen hamma fanlardan yaxshi o'qiyans, o'zing ham juda shirin qizsang, endi shu... yozuvningi ham chiroyli qilishimiz kerak-da. Uyda har kuni kitobdan to'rt qator matnni chiroyli qilib ko'chir, oying senga qarab tursin, yozganlarining baholasini, sindfa esa o'zim sen bilan shug'llullanaman" dedim.

man, dedim.
U xo^p bo^{ladi}, degandek boshini imladı. Ammo ertasi kuni "Ustoz, oyimga yozuvimga qarab turing, yozganlarımı tek-shirib bering desam, to'xtab tur, to'xtab tur, keyin... deb qaramadı, serial ko^rib "o'tiraverdi..." deb

oldi. Yozib kelganlarini ko'rish uchun daftarni qo'limga oldim. Qizaloq harakat qilgani ko'rini turibi, matnni anchagini chiroli yozishga urinibdi. Ammo ona uning shu harakatlariiga ozgina vaqt ajratib, ustidan ko'rib bergenida va qo'llab-quvvatlab, rag'batlantirganida, yozuvidagi kamchiliklarini ko'rsatganida yanayam yaxshi bo'lardi.

Ziyodaxonga "Yo'q, unaqa demagin, qizim, keyingi safar oying albatta senga yordamlashadi, yozganlaringni ko'rib beradi", dedim. Ammo shunday deyishiga dedim-u, o'zim ham o'ylanib qoldim. Chunki ona keyingi safar bolasining taklifiqa yana e'tibor qaratmasligidan xavotirda edim.

Axil serial degani har kuni berilsa... Unga qiziqib ketganlarni ko'p ko'rghanman, butun dunyoni unutib serialni tomosha qilishadi. Ona uchun farzandining birgina harakatini baholash, rag'batlantrish shunchalik qiyinmiga?

Sinfimda 30 bolaga nazar solaman. Ularda 30 xil xaraktermi ko'raman. Kimdir harakatchan, onasining e'tibori, ko'magi va rag'batil bilan yanada ilg'orlashib ketaveradi. Kimningdir bolasi esa intiluvchan, ammo ota-ona biroz e'tiborsiz. Bir tomornlama ko'mak - pedagogning rag'batiyaxshi, ammo ota-onaning e'tibori bolaga o'zgacha kuch, in-



lik bilan munosabatda bo'lamon. Afsuski, bugun oilasi va farzandlariga e'tiborli, ta'lim-tarbiyaga jon ko'yitadigan onajonlar va otajonlarimiz juda ko'pligi bilan birga, ularning aksi bo'lganlar ham tez-tez uchrab turibidagi...

Shular xayolimdan o'tar ekan, Ziyodxonning onasiga qo'ng'i-roq qilish uchun raqamlarni terdim. Dastlab qizining harakatlari va intilishi haqida gapirib, so'ng yozuvini to'g'rilash uchun hamkorlikcha chaqirdim. Ona taklifimni bajonidil qo'llab-quvvataladi, xursand bo'ldi. Ertasi kuni esa o'quvchimning yuz-ko'zida ham ana shu quvonchning uchquni porlab turganini ko'rdim.

Nazokat NAMOZOVA,
Bulung'ur tumanidagi
71-maktabning ona tili va
adabiyot fani o'qituvchisi

Mulkchilik shaklidan qat'i nazar, barcha korxona, tashkilot va muassasalar rabbarlari diqqatiga!

NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

rektorati 2020-2021-o'quv yilida bakalavriat yo'nalishlari bo'yicha bitiruvchilarni hamkorlik shartnomalari asosida ish joylariga taqsimlash jarayoni boshlanganligini ma'lum qiladi. Universitetning zamonaviy bilimlarni mukammal o'zlashtirgan bitiruvchi bakalavrлariga ehtiyoji bo'lgan korxona rahbarlaridan bitiruvchilarga kelgusidagi ish joyini tanlashida ko'maklashish maqsadida ularga yaratib berilishi mumkin bo'lgan imkoniyatlar (maosh, turar joy bilan ta'minlash va boshqa imtiyozlar) haqida universitet rahbariyatiga joriy yilning 30-martiga qadar talabnoma hamda so'rov xati bilan murojaat qilishingizni so'rasmiz.

Ma'lumot uchun telefon: (71) 276-84-03, (97) 741-15-44. Manzilimiz: Toshkent shahri, 100185, Bunyodkor ko'chasi, 27-uy.

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetini 2020-2021-o‘quv yilida bitirayotgan bakalavrlar haqidagi ma’lumotlar: (g – davlat granti asosida, sh – shartnoma asosida):

Kalandarova Amina Nurullayevnaning 14.00.36 — Allergologiya va immunologiya (tibbiyot fanlari) ixtisosligi bo'yicha "Orolbo'y mintaqasidagi ayollarda servikal intraepitelial neoplaziya patogenezidagi klinik va immunogenetik xususiyatlar" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi Immunologiya va inson genomikasi instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchisi DSc.02/30.12.2019. Tib.50.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 18-mart soat 14:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100060, Toshkent shahri, Y.G'ulomov ko'chasi, 74-uy.

Tel/faks: (71) 233-08-55; e-mail: immunologiya@qip.ru

Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumanidagi 64-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi tomonidan
2019-yil 18-iyunda ISMATOV SA'DULLO TOLIP o'g'liga berilgan M №0264057- raqamli
ATTESTAT yo'qolgani sababli

BEKOR QILINADI.

Shayxontohur tumani xalq ta'limi bo'limi tasarrufidagi 40-umumiy o'rta ta'lim maktabi rahbariyati va pedagogik jamoasi O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston Respublikasi Xalq o'qituvchisi Turg'unxo'ja Azlarovga opasi

Farida aya AZLAROVning
vafoti munosabati bilan ta'ziya bildiradi.

O'zbekiston xalqaro Islom akademiyasi jamoasi akademiya prorektori, filologiya fanlari doktori, professor Zohidjon Islomovga akasi

Murodjon ota ISLOMOV hamda uning o'g'li Shavkat ISLOMOVlarning

vafoti munosabati bilan ta'ziya izhor qiladi.

Taklif

Ta'til qishda bo'lsa...

Kambag'algan yoz yaxshi

(Xalq maqoli)

Dunyoda konservativizmga eng moyil xalq sifatida inglizlarni tan olishadi. Ammo xalqimiz ham bu borada inglizlardan qolishmasa kerak. Chunki bizda ham ko'pchilik yangilik va o'zgarishlardan ko'ra ko'proq an'anaviylikni ma'qul ko'rishiadi. Maktablarda o'quv yilini ikki yarim yillikka bo'lgan holda, qishki ta'tilni uzaytirish, o'qituvchilarining mehnat ta'tilini qishda berish haqida qayerda gap ochsam, darhol qarshi fikr bildirishgan. Hatto bu g'oya amalga oshsa eng ko'p foyda ko'radigan o'qituvchilarining o'zlarini ham.

Ma'lumki hozirgi, amaldagi o'quv yili 4-sentabrdan boshlanib, 25-mayda tugaydi. O'quv yili davomida kuzgi, qishki, bahorgi ta'tillar beriladi. O'quv yilining uzunligi odatda 34 hafta davom etadi. O'quv yilining 15-noyabrdan 15-martgacha bo'lgan davri qishki, isitiladigan mavsumga to'g'ri keladi. O'zbekiston sharoitida bu to'rt oylik muddatning eng sovuq davri dekabr yanvar oylaridir.

Agarda o'quv yilini avgust oyining 8-9-kunlari boshlab, birinchi yarim yillikni dekabr oyining 10-11-kunlari, ikkinchi yarim yillikni esa 1-2-fevralda boshlab (kunning aniq emasligiga sabab belgilangan kunlar dam olish kuniga to'g'ri kelishi mumkinligi) 31-mayda tugaydigan tizimga o'tilsa, ana shu eng sovuq kunlar ta'til davriga to'g'ri kelardi.

Bu esa o'quvchilar uchun ham, o'qituvchilar uchun ham, davlat uchun ham foydali bo'lardi. O'qituvchi va o'quvchilar yilning eng sovuq davrida issiq uylarida bo'lishsa, davlat esa taxminan o'n ming maktabni ikki

oy davomida isitish uchun ketadigan xarajatlarni iqtisod qilardi. O'quv yilining taklif etilayotgan mazkur shakliga o'tilsa, ayniqsa o'qituvchilarining sog'lom rivojlanishi uchun juda muhim ahamiyatga ega bo'lardi. Bilamizki, shamollash insonlarda uchraydigan juda ko'plab kasalliklar-jing asosiy sabab hisoblanadi. So'nggi yillarda iqlim o'zgarishlari sabab mamlakatimizda qish anchagini iliq o'tmoqda. Ammo qish bu baribir qish. Ota-bobolarimizning "Qishning bir kuni ham qish" degan purma no maqoli bor.

Qishning sovuq kunlari yosh bolalar ertalabki ayozda, ayniqsa, qishloq joylarda (50% dan ko'proq bolalar maktabga 1-2 chaqirim, hatto bir qismi esa undan-da uzozqand qatnashadi), ba'zilarining ust-boshi yupun, ba'zilarining pojyabzali yirtiq, ochin-to'qin (ba'zilar ertalab ishtaha yo'qligi sabab, ba'zilar maktabga kechikmaslik uchun nonushta qilmay chiqishadi) ko'pincha loy ko'chalardan maktabga shoshishadi.

Maktablarda ham ko'pincha ularni sovuq sinfxonalar kutib turgan bo'ladi. Aksariyat maktablarning haminqadar isitilishini deyarli barchamiz bilamiz. Ammo ayrim obyektiv va subyektiv sabablarga ko'ra ba'holatga barham berishning imkoniy yo'q. Natijada ko'pchilik bolalar shamollab qoladi va turli xil kasalliklarni orttirib olishadi.

Qishki ta'tilning 20-dekabrdan 20-yanvarga-



cha bo'lgan davri o'qituvchilar uchun mehnat ta'tili (Iyul oy esa yozgi ta'til) bo'lsa, 10-20-dekabrgacha bo'lgan muddatda fan olimpiadalarining maktaba u tuman bosqichlarini, 20-yanvardan 1-fevralgacha bo'lgan muddatda esa viloyat bosqichini o'tkazish mumkin bo'lardi.

Yana eng muhim jihatlardan biri yangi tizimda ham o'quv yilining davomiyligi 34 hafta bo'ladi. Amaldagi o'quv yilidan farq qiladigan tomoni o'qituvchilariga beriladigan mehnat ta'tili 48 kundan ikki oyga o'zgardi. Ammo o'qituvchilariga to'lanadigan ish haqi miqdori o'zgarmaydi. Chunki har ikki holda ham 12 oy uchun haq to'lanadi.

Faqatgina mavjud imkoniyatlardan foydalangan holda, ortiqcha resurs sarflamasdan, davlat uchun, o'quvchilar uchun, o'qituvchilar uchun, ota-onalar uchun, ya'ni butun jamiyat uchun quayliyklar yaratiladi xolos.

Normamat ESHONQULOV,
Oltinsoy tumanidagi
63-maktabning oly
toifali tarix fani o'qituvchisi

Dars o'tasanmi, yo'qmi, hujjating joyida bo'lsin!

O'yab qolaman, sifatli ta'limg kerakmi yoki sifatli hujjatlar? Xalq ta'limi vazirligi maktablarda sifatli ta'limg yo'lgan qo'yish maqsadida o'qituvchilar tomonidan yuritilayotgan hujjatlar sonini qisqartirgan edi. Bundan quvongandik, endi faqat ta'limg sifatiga e'tibor beriladi, o'qituvchi ortiqcha qog'ozbozlikdan qutildi, endi o'z ustida yanada ko'proq ishlaydi, bu bizga yaratib berilgan imkoniyat deb yurgandik. Afsuslar bo'lsinki, qog'ozbozlik davom etmoqda.

Bunday deyishimga sabab maktabimizga xalq ta'limi bo'limidan tekshiruv keldi, albatta bundan xursand bo'ldim. Ular darsimizni kuzatib tahlil qiladi, o'z xulosalarini bildiradi, degan o'ya edim. Ha, ular dars o'tayotgan xonamga kirishdi, davomatni aniqlab, xona haroratini yozdi, o'quvchilar darslik bilan ta'minlanganini so'rada, chiqib ketishdi. Loaqaq, ustoq, darsingizni kuzatsam maylimi, qaysi fandan dars o'tasiz, o'quvchilarining faolligini, qiziqishlarini bilmoqchiman, demadi. Hech bo'lmasa, aziz o'quvchilar, qaysi dars bo'lyapti.

o'qituvchilarining mavzuni yetkazib berolayptimi, bu fanga qiziqasizlarmi, deya o'quvchilaridan ham so'ramadi. Darsimmi buzishgani, yana qanchadir vaqtimni olgani qoldi.

Darsni endi boshlagan edim, sizni so'rashyapti, kirar ekansiz, deb chaqirtilib olishadi. Kirsam o'quvchilar o'tasida o'tkazilgan fan olimpiadasi mabkab bosqichi hujjatlarini, metodbirashma hujjatlarining ularning bayonnomasi, hisobotlarini ko'rsatsangiz deyishdi. Ba'jarganlarimni ko'rsatdim, bayonnomma va hisobotlarni endi qilayotganimni aytdim.

Ular hujjatları taqdim etilmadi, demak mavjud emas, deya dalolatnomaga tuzishdi. Bu yerdayam anchagini vaqtim ketdi, u yog'da o'quvchilar o'qituvchimiz qachon kelib darsni boshlarkan, deya umid bilan kutib o'tirgani ko'z oldimiga keldi. Mayli, hujjatim yo'q ekan, yuringlar, darsimmiyam kuzatib, xulosa beringlar, degim keldi, lekin ular o'zlarining ishi bilan bandligini ko'rib bu so'zlarga hojat yo'qligini tushundim. Meni bir savol o'yantiradi: shu hujjatlar ta'limg sifatini oshirishga xizmat qiladimi? Metodbirashmadagi bayonnomalar yoki olimpiada hujjatlarining sifatli ta'limga nima aloqasi bor? Men nima qilay: kechasi bilan hisobot yozmay yoki ertangi kungi darsimma tayyorlanaymi? Xo'p, biz Finlandiya ta'limg tizimini olib kirmoqdamiz, o'sha davlatlar ta'limalaydan bizga o'xshash hujjatlar bormikan? Shu hujjatlar bo'lmasa ishlab bo'lmaydimi?

Yuqori tashkilotlar shuncha yengilklar yaratib qo'yildi, shu oddiy ishni bajarish qiyinmi, bu vazifang-ku degan so'zlarini ko'p takrorlashmoqda. Ular o'zlarini o'mimizga qo'yib ko'rsinlar-chi, 45 daqiqadan har kuni 4 saat dars o'tib ko'rishsin. Bir hafta dars o'tib, bu hujjatlarini yotib, ko'rsa o'qituvchiga naqdar qiyin ekanligini tushunib yetishardi. O'qituvchi kirda 3 yoki 4 taurli sinflarga dars o'tish uchun tayyorlanishi kerak. Kitob izlaydi, qo'shimcha adabiyot o'qiydi... Darsga tayyorlanish uchun ancha vaqt ketadi, qishloqda chiroq qurg'urinmay o'chadi, bechora o'qituvchi bir nechta shamlarni tugatadi tok kelguncha. Ta'limga oid yangiliklarni o'qishi, qonunlarni bilishi kerak. Chunki ertaga tekshiruv kelsa so'radi. Men o'quvchilarini taqdirin o'layman, ularga ta'limg berolmasak ertaga oily o'quv yurtiga kirolmasa, yana bechora o'qituvchi aybdor...

Elyorjon MAHKAMOV,
Rishton tumanidagi
21-maktab o'qituvchisi

Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2006-yil 22-dekabrdan 0067-ragam bilan ro'yxatga olingan. Indeks: 149, 150, V-4576. Tiraji 9355. Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan, qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

TELEFONLAR:

qabulxonasi — (71) 233-50-55;
kotibiyat — (71) 233-99-15;
reklama va marketing bo'limi —
(71) 233-42-92 (faks), (71) 233-56-00.



"Ma'rifat" dan materiallarni ko'chirib boshish tahriri yuxsat bilan amalga oshirilishi shart.

Tahriri yuxsat kelgan qo'yozmalar taqriz qilinmaydi va mualifiga qaytarilmaydi.

MANZILIMIZ:
100083, Toshkent shahri,
Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy.
Web-site: www.marifat.uz

Dizaynerlar: Malohat Toshova, Faxriddin Rahimov.
Navbatchi muharrir: Humoyun Quvondiqov.
Navbatchi: Faxriddin Rahimov.

Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
Korxona manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

1 2 3 4 5 6

Ma'rifat

TA'SIS ETUVCHILAR:

O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi,
O'zbekiston Olyi va o'rta maxsus ta'lim vazirligi,
O'zbekiston Ta'lim va fan xodimlari kasaba
uyushmasi Respublikasi kengashi.